



MILLIY TIKLANISH

1995-yil 10-iyundan chiqara boshlagan

www.mt.uz / milliytiklanish2022@umail.uz

tiklanish



**MILLIY QADRIYATLARGA
TAYANGAN TARAQQIYOT**

**«TIL POSBONLARI»
BIRLASHMOQDA!** 4

**DEKOLONIAL STRATEGLARGA
ENTIYOJ BOR EDI...** 4

№ 38 (1187) 2022-yil 23-noyabr, chorshanba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV FRANSIYA RESPUBLIKASI PREZIDENTI EMMANUEL MAKRONNING TAKLIFIGA BINOAN 21-22-NOYABR KUNLARI RASMIY TASHRIF BILAN USHBU MAMLAKATDA BO'LDI

Tashrifning asosiy voqealari 22-noyabr kuni bo'lib o'tdi. Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parijdagi Burbon saroyida Fransiya Milliy yig'ini Raisi Yael Braun-Pive bilan uchrashuv o'tkazdi. Parlamentlar o'rtasidagi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotni yanada demokratlashtirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirish borasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish yuzasidan fikr almashildi. Fransiya Milliy yig'ini rahbari O'zbekistonda, shu jumladan, parlamentarizmi rivojlantirish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilish, gender tenglikni ilgari surish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik yangilanishlarning borishini yuksak baholadi. Gender tenglikni ta'minlash jihatlariga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston bu borada katta muvaffaqiyatlarga erishgani, mamlakatimizda xotin-qizlar qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat idoralarida, tadbirkorlik va ijtimoiy sohada munosib o'rin egallayotgani qayd etildi. 2022-yil sentyabr oyida mamlakatimizda ilk bor jahon parlamentlari yetakchi ayollarining 14-sammiti o'tkazildi. Yetakchi ayollarning rolini oshirish to'g'risida Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Uchrashuvda o'lim jazosini bekor qilish, inson huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, ekologik muammolarni hal etish to'g'risidagi normalar va boshqa muhim qoidalarni mustahkamlab qo'yish ko'zda tutilgan

konstitutsiyaviy islohotni amalga oshirishga tayyorgarlik borasidagi asosiy yondashuvlar muhokama qilindi. Parlamentlararo do'stlik guruhining uchrashuvlarini o'tkazish, BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi, Yevropa Parlamenti, Parlamentlararo ittifoq, YEXHT Parlament assambleyasi doirasidagi hamkorlikni kuchaytirishga kelishib olindi. Uchrashuv yakunida Prezidentimiz Faxriy mehmonlar kitobida qayd yozib qoldirdi. Shuningdek, Fransiya Milliy yig'ini Raisini o'zi uchun qulay vaqtda tashrif bilan mamlakatimizga borishga taklif etdi. Parijdagi an'anaviy ravishda rasmiy tadbirlar o'tkaziladigan Faxriylar uyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi. Maydonda oliy martabali mehmon sharafiga Fransiya Respublika gvardiyasi harbiy xizmatchilari saf torddi. Harbiy orkestr ikki mamlakat davlat madhiyalarini ijro etdi. Gvardiyachilar davlatimiz rahbari oldidan tantanali yurib o'tdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev va Fransiya tashqi savdo, iqtisodiy jozibadorlik va xorijdagi fransuz fuqarolarining ishlari bo'yicha vaziri Olivye Beshf faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar. Marosimdan so'ng O'zbekiston delegatsiyasi Fransiya Prezidentining qarorgohi – Yelisey saroyiga yo'l oldi.

Davomi 2-betda



O'ZBEKISTON – FRANSIYA:

O'ZARO HAMKORLIKNING YANGI DAVRI

O'zbekiston – Fransiya munosabatlarini yanada kengaytirishga qaratilgan 14 ta kelishuv qabul qilindi. Fransiya taraqqiyot agentligi bilan 2023 – 2025-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturini amalga oshirish bo'yicha strategik sheriklik to'g'risidagi bitim hamda Tashqi siyosiy idoralar o'rtasidagi 2023 – 2024-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi shular jumlasidan.

4 O'ZBEK TILI BAYRAMINI HAM ISHLANMAYDIGAN BAYRAMLAR QATORIGA QO'SHISH KERAK

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksiga kiritilgan o'zgarishlarni tahlil qilib, haqiqatan ham 1995-yilda qabul qilingan Kodeksning bugungi talablarga javob bermay qolganiga amin bo'ldim.

4 CHEMPIONNING ONASI

Yo'q, to'g'ridan-to'g'ri namoyishni ko'ra olmayman, yozib olinganini ko'raman. Chunki nafaqat o'g'lim, balki raqibining ham jiddiy jarohat olishini istamayman. Yaqinda bir jangda Bahodir raqibini nakaut holatiga tushirib qo'ydi.

6 «IZLAM» TURKUMI JAMIYAT OLDIGA QANDAY SAVOLLARNI QO'YDI?

«Adabiyotni kimlar yangilaydi?!» degan savolga bir so'z bilan «iste'dodlar» deb javob berish ham mumkin. Ammo bu javobdan so'ng yana o'nlab savollar paydo bo'ladi.



7 TURKIY DUNYO MA'RIFATPARVARLARI ORZULARI USHALGAN KUN

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

QONUNLARIMIZ QAT'IYLASHISHI KERAK



«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida fraksiya rahbari Alisher Qodirov deputatlar e'tiborini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti hamda kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalari bo'yicha jahon konferensiyasidagi nutqining mazmun-mohiyatiga qaratdi.

Davomi 3-betda

- ✓ **NEGA O'ZBEKISTONNING MAKTABGACHA TA'LIMGA E'TIBORI DUNYOGA NAMUNA BO'LMOQDA?**
- ✓ **ALISHER QODIROV BESH KUNLIK O'QUV TIZIMIGA O'TISH TAKLIFINI KIRITDI.**
- ✓ **UNIDA RAHMONOVA MUZEYLAR MABLAG'INI, ABDUMALIK AKRAMOV ESA TARBIIYACHILAR MAOSHINI IZLAB XUNOB BO'LMOQDA...**
- ✓ **QOZOG'ISTON TURMALARIDA 651 NAFAR O'ZBEKISTON FUQAROSI O'TIRIBDI.**
- ✓ **MISRDAGI «HUIRA»LARGA 4 MINGGA YAQIN O'ZBEKISTONLIK BOLA NOQONUNYI O'QISHGA YUBORILGAN...**

Adabiyotda odob va hayo masalasi estetikaning muhim talablaridan biri. Men shunday o'ylayman. Yoshlardan ham esetikaning bu muhim talablariga, avlodlar ming yillardan beri tajribasidan o'tkazgan xulosalarga hurmat bilan qarashni so'rayman. Gap shundaki, agar siz bugun tizzaning yalang'ochligini tasvirlasangiz, buni ijtimoiy ko'nikmaga aylantirsangiz, ertaga keladigan avlod albatta boldir, keyin yuqoriroq a'zolarining yalang'ochligini ham ko'nikmaga aylantirishadi. Bu mas'uliyat hamisha esda turish kerak.



MEHNAT KODEKSI XALQIMIZGA NIMA BERADI?

 5

100 JILDLIK MUHTASHAM MAJMU'A

 2

XITOYLIK QASHSHOQLARNI ILHOMLANTIRGAN OTA

 8


O'ZBEKISTON – FRANSIYA:

O'ZARO HAMKORLIKNI YANGI DAVRI

(Boshlanishi 1-betda)

Yelisey saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning muzokaralari bo'lib o'tdi.



Davlat rahbarlari O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalarini atroflicha ko'rib chiqdilar va munosabatlarni yuksak darajadagi keng qamrovli sheriklik ruhida rivojlantirishga kelishib oldilar.

Yetakchilar ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlarni o'rnatilganining 30 yilligi nishonlanayotgan joriy yilda ikki tomonlama aloqalar jadal sur'at bilan rivojlanib borayotgani, keng siyosiy muloqot chuqurlashib, xalqaro tashkilotlar doirasida tomonlar o'zaro ko'maklashayotgani, parlamentlararo muloqot kengayganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Keyingi yillarda Fransiya kompaniyalari ishtirokidagi qo'shma korxonalar va loyihalar soni uch barobar ko'paydi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalarning joriy portfeli 5 milliard yevrodan oshdi.

Energetika, geologiya-qidiruv, oziq-ovqat sanoati va savdo sohasida «Total Eren», «Veolia», «EDF», «Orano», «Lactalis», «Carrefour» va «Shiever» kabi xalqaro miqyosdagi kompaniyalarning o'zaro manfaatli faoliyati qayd etildi.

Shahar infratuzilmasini rivojlantirish, «yashil» iqtisodiyot, kommunal, gidroenergetika, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalardagi loyihalarda ishtirok etayotgan Fransiya taraqqiyot agentligi bilan hamkorlik sifat jihatidan yangi mazmun kasb etdi.

Tashrif arafasida o'tkazilgan O'zbekiston – Fransiya

ishbilarmonlik tadbirlarining yakunlari, ularning doirasida umumiy qiymati 6 milliard yevrodan ortiq bo'lgan savdo-iqtisodiy bitim va shartnomalar imzolangan yuksak baholandi.

Xavfsizlik sohasida, yuzaga kelayotgan tahdid va xatarlarga samarali qarshi kurashish borasidagi ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashdan manfaatdorlik bildirildi.

Madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishning ahamiyati qayd etildi. Tomonlar Samarqandda Fransiya alyansining bo'linmasi ochilishini qo'llab-quvvatladilar hamda joriy yil 27–28-noyabr kunlari Parijda ikkinchi O'zbekiston – Fransiya ta'lim forumining o'tkazilishini olqishladilar. Fransuz tili o'qituvchilarini tayyorlash sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga kelishib olindi.

Yetakchilar O'zbekistonning madaniy-tarixiy merosiga bag'ishlab Luvr muzeyida «O'zbekiston vohalarining mo'jizalari. Karvon yo'llari chorrohasida» va Arab dunyosi institutida «Samarqandga yo'l. Ipak va oltin mo'jizalari» ko'rgazmalari ochilishini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Davlat rahbarlari dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar yuzasidan ham fikr almashdilar. Uchrashuv ochiq, samimiy va do'stona muhitda o'tdi. Yaxunda Shavkat Mirziyoyev Emmanuel Makronni o'zi uchun qulay vaqtda tashrif bilan mamlakatimizga borishga taklif etdi.

Yelisey saroyida o'tgan o'lyi darajadagi muzokaralardan so'ng O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron rafiqalari bilan Parijdagi Luvr muzeyida bo'ldilar.

Luvr dunyodagi eng katta va eng ko'p tashrif qilinadigan muzeylardan biri bo'lib, eng yirik va qimmatli badiiy asarlar to'plamiga ega. Har yili bu yerga 10 millionga yaqin sayyoh keladi.

Xalqimizning boy madaniy merosiga bag'ishlangan «O'zbekiston vohalarining mo'jizalari. Karvon yo'llari chorrohasida» ko'rgazmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yilning oktyabr oyida Fransiyaqa amalga oshirilgan tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarga muvofiq tashkil etildi. Davlatimiz rahbari o'shanda O'zbekiston va Fransiya muzeylari hamkorligida ko'rgazmalar tashkil etish, mamlakatlarimiz o'rtasida ilmiy va madaniy aloqalarni kengaytirish zarurligini qayd etgan edi. O'zbekiston Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi va Luvr muzeyi o'rtasida tegishli memorandum imzolandi.

Keyingi uch yil davomida ko'rgazmalarga puxta tayyorgarlik ko'rdi. Bir necha O'zbekiston va Fransiyaning birgalikdagi ekspeditsiyalari uyushtirilib, ko'plab arxeologik topilmalar kashf qilindi. Bundan tashqari, Luvr restavratsiyachilari va mamlakatimiz mutaxassislari bir necha bosqichdan iborat keng ko'lami tiklash tadbirlarini amalga oshirdi.

Bu ishlar natijasida Luvrning Rishelvey zali va Islom bo'limida xronologik ketma-ketlikda joylashtirilgan beshta bo'limdan iborat katta ko'rgazma makoni yaratildi. Bular – «Voha davlatlari va podshohlari davri: Ipak yo'lidagi madaniyatning muloqoti», «O'rta asrlar va san'atning gullab-yashnashi», «Markaziy Osiyoda islomning tarqalishi, madaniyat va fanda Uyg'onish davri», «Ibn Sinodan Chingizxon gacha», «Buyuk imperiyalar davri: Temuriylar va Shayboniylar».

Yurtimiz tarixining 1500 yildan ortiq davrini qamrab olgan ko'rgazma mamlakatimizning 16 muzeyidan 138 ta ekspонатdan iborat. Shuningdek, Fransiya, Buyuk Britaniya va AQSHning yirik muzeylaridan keltirilgan 31 ta buyum ko'rgazmadan joy oldi.

Ko'rgazmaning ilk mehmonlari bo'lgan O'zbekiston va Fransiya yetakchilari Dalvarzintepa va Xolchayon yodgorliklaridan topilgan ekspонатlar, Varaxshadagi qizil rangli xonadan devoriy surat, Kofirqal'adan o'yimakor panno, Katta Langar Qur'oni sahifalari, Amir Temur maqbarasidan qo'sh eshik, Afrosiyobdagi elchilar tasviri tushirilgan devoriy surat va boshqa ekspонатlar bilan tanishdilar. Ularning yaratilishi va topilishi, ular bilan bog'liq tarixiy davrlar va shaxslar to'g'risida batafsil ma'lumot berildi.

Davlat rahbarlari ko'rgazma yuksak darajada tashkil etilgan va unda o'ziga xos muhit yaratilganini ta'kidlab, ikki mamlakatning madaniy hayotida muhim o'rin tutuvchi ushbu tadbirni tayyorlashga hissa qo'shganlarga minnatdorlik bildirdilar.

Luvrdagi ko'rgazma nafaqat O'zbekiston va Fransiya xalqlari, balki butun Yevropa va Markaziy Osiyo o'rtasidagi azaliy tarixiy aloqalarni, do'stlik va o'zaro anglashuvni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi alohida qayd etildi.

Ko'rgazma 2023-yil 6-mart kuniga qadar davom etadi. Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron rafiqalari bilan birgalikda Parijdagi Arab dunyosi institutiga tashrif buyurdilar.

Bugungi kunda bu yerda institut va O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi hamkorligida «Samarqandga yo'l. Ipak va oltin mo'jizalari» nomli ko'rgazma tashkil etilgan. Unda O'zbekistonning XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid boy moddiy madaniyati taqdim etilgan.

O'zbekistonning 9 ta eng yirik muzeylaridan 300 dan ortiq ekspонат joriy yilning 23 noyabr kunidan 2023-yil 4-iyun kuniga qadar ilk bor Fransiya qadriyatlariga keng xalqaro jamoatchilik e'tiboriga havola etildi.

Ko'rgazmadan Nukus, Samarqand, Buxoro va Toshkent muzeylaridan keltirilgan to'qimachilik buyumlari, libos va poyabzallar, bosh kiyim to'plamlari, shuningdek, Turkiston avangardi yo'nalishiga mansub 24 ta mo'yxalam asari o'rin olgan. Tayyorgarlik doirasida 89 ta zargarlik buyumlari restavratsiya qilindi. Prezidentlar uchun ko'rgazma

bo'ylab ekskursiya o'tkazildi, ekspонатlar to'g'risida batafsil so'zlab berildi.

Hunarmand ajdodlarimizning yuksak ijodiy tafakkuri va mahoratidan dalolat beruvchi ushbu buyumlarning rang-barangligi va nafosati Fransiya tomonida hayrat uyg'otdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaqa rasmiy tashrifi samarali bo'ldi.

Tashrif yakunlari bo'yicha davlat rahbarlari yuksak darajadagi keng qamrovli sheriklik munosabatlari rivojlantirish maqsadida Qo'shma bayonot qabul qildilar.

Umuman, O'zbekiston – Fransiya munosabatlari yanada kengaytirishga qaratilgan 14 ta kelishuv qabul qilindi. Fransiya taraqqiyot agentligi bilan 2023-2025-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturini amalga oshirish bo'yicha strategik sheriklik to'g'risidagi bitim hamda Tashqi siyosiy idoralar o'rtasidagi 2023 – 2024-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi shular jumlasidan.

Madaniy-tarixiy meros, maktabgacha, xalq va oliy ta'lim, davlat xizmatini rivojlantirish sohasidagi hamkorlik to'g'risida deklaratsiyalar ham imzolandi.

Fuqarolik aviatsiyasi, korrupsiyaga qarshi kurashish, sudyalarning malakasini oshirish, fransuz tilini o'qitish va boshqa yo'nalishlarda hujjatlar qabul qilindi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Fransiyaqa rasmiy tashrifi yakunlandi.

O'ZA

✓ Taqdimot

100 JILDLIK MUHTASHAM MAJMUA

Ma'lumki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktyabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat 100 jildlik kitoblarni turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ana shu ezu tashabbus asosida yurtimizda «Turkiy adabiyot durdonalari» nomli 100 jildlik asarlar majmuasi nashr etildi. Kuni kecha O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy hayotida muhim voqea bo'lgan ushbu muhtasham majmuaning taqdimoti bo'lib o'tdi.

Taqdimot marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov so'zga chiqib, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi ma'naviy-ma'rifiy tashabbuslar, ezu va insonparvar loyihalar, xususan, «Turkiy adabiyot durdonalari» nomli 100 jildlik asarlar majmuasi nashr etilishining Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi adabiy diplomatiyani shakllantirishdagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ahamiyati, turkiy xalqlar o'rtasida yagona tarix va umumiy qadriyatlar timsoliga aylangan adabiy aloqalar haqida fikr bildirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori Asadjon Xodjayev ushbu yirik majmuani yaratish bilan bog'liq jarayonlar, olib borilgan ilmiy va ijodiy izlanishlar haqida ma'lumot berdi.

Majmuaga umumturkiy adabiyotning qadimgi davridan to' bugungi kunimizga qadar yaratilgan asarlari, jumladan, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, shuningdek, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining mumtoz va zamonaviy adiblari ijodidan eng sara namunalar kiritilgan.

Majmuaning «Umumturkiy adabiyot namunalari» deb nomlanuvchi dastlabki 5 jildidan Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniyning «Hikmatlar»i hamda Nosiruddin Rabg'uziyning «Qissasi Rabg'uziy» kabi mumtoz asarlari o'rin olgan. 28 jildni tashkil etgan «O'zbek adabiyoti namunalari» Alisher Navoiyning saylanma g'azallari bilan boshlanib, qoraqalpoq adabiyoti namunalarini ham o'z ichiga oladi.

Majmuada turk, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz va turkman badiiy ijodiyotiga ham keng o'rin ajratilgan. Jumladan, Jaloliddin Rumi, Yunus Emro, Nizomiy Ganjaviy, Nasimi, Fuzuliy, Maxtumquli, Mullanafas, Nozim Hikmat, Samad Vurg'un, Abay, Muxtor Avezov, Sobit Muqonov, Chingiz Aytmatov,

To'lagan Qosimbekov, Mar Boyjiyev, Otajon To'g'on kabi mumtoz va zamonaviy adabiyotning 100 dan ortiq namoyandalari qalamiga mansub noyob meros jamlangan. Taniqli venger adiblarining asarlaridan turkumga tarjimalar yakunlovchi jild sifatida taqdim etilgan.

«Turkiy adabiyot durdonalari» to'plamini nashrga tayyorlash jarayonida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tashkilotchiligidagi qisqa muddatda katta mehnat, zalvorli ijodiy ish amalga oshirildi. Majmuaga uchun material to'plash maqsadida qardosh davlatlarga bir necha bor ijodiy safarlar uyushtirildi. Eng malakali tarjimonlar, adabiyotshunos va matnshunos olimlar, adiblar, muharrir va rassomlar majmuani tayyorlash va chop etish ishlariga keng jalb etildi.

G'oyat sinchkovlik va katta mas'uliyat talab qiladigan bunday keng qamrovli ijodiy jarayonda shu kunga qadar amalga oshirilgan tarjimalar orasidan eng saralari, tarjima san'atining mumtoz namunalarini sifatida e'tirof etilgan yetuk asarlar tanlab olindi. Mazkur ijodiy loyihada G'afur G'ulom, Mirzakalon Ismoiliy, Mirtemir, Nosir Fozilov, Pirmuqol Qodirov singari ustoz adiblar bilan bir qatorda badiiy tarjima sohasining bugungi mahoratli namoyandalari ijodiy ishlariga ham alohida o'rin ajratildi.

«Turkiy adabiyot durdonalari» to'plami nashr etilgan uchun Ozarbayjon

davlati nomidan Prezident Shavkat Mirziyoyevga o'z minnatdorligimizni bildiramiz, – dedi taqdimotda so'zga chiqqan Toshkentdagi Ozarbayjon madaniyat markazi direktori, Ozarbayjon Respublikasining yurtimizdagi elchixonasi birinchi kotibi Samir Abbosov. – Bu g'oyat muhim tarixiy voqeadir. Endilikda kitobxonlar turkiy mamlakatlarning yozuvchi va shoirlari asarlarini o'z ona tillarida o'qish imkoniga ega bo'ldilar. Adabiyot – hayot ko'zguisi. Har bir xalq o'z adabiyoti, madaniyati orqali dunyoga taniladi. Hozir ham adabiyot xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashda muhim vositadir. Biz ushbu to'plam haqida Ozarbayjon ommaviy axborot vositalariga ma'lumot yubordik. Bu voqelik Ozarbayjonda katta qiziqish uyg'otdi. Ayni paytda, mazkur majmu Shavkat Mirziyoyevning turkiy adabiyot rivojiga qo'shgan ulkan hissasi sifatida yuksak baholarmoqda.

Turkiy davlatlar o'rtasidagi aloqalar izchil rivojlanmoqda, – dedi Qirg'iziston Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi madaniyat masalalari bo'yicha attachesi Ayjamal Qaramurzayeva. – Bunda madaniy hamkorlikka katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Turkiy adabiyot durdonalari» to'plamini nashr etishga oid tashabbus ulkan loyiha sanaladi. U turkiy davlatlar o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalarning rivojiga

munosib hissa qo'shadi. Mazkur to'plamni tayyorlashda mehnat qilgan tarjimon va ijodkorlarga minnatdorlik bildirmoqchiman.

Ochig'ini aytganda, Prezidentimizning taklifi tushganda, qisqa vaqt ichida bunday ulkan loyihani bajarib ulguramizmi, degan savol tug'ilgandi, – dedi «Jahon adabiyoti» jurnali bosh muharriri, taniqli jurnalist va tarjimon Ahmadjon Meliboyev. – Majmuani tayyorlashda Yozuvchilar uyushmasi mas'ullari, olimlar, noshirlar, jurnalistlar birgalashib ishladik. Majmu misolida turkiy tili davlatlar adabiyotining bosib o'tgan ijodiy yo'lini ko'rsatib berishga harakat qildik. Shu bilan birga, mazkur to'plamni tayyorlashda qardosh mamlakatlar adabiyotida qanday jarayonlar kechayotganini ham angladik. «Turkiy adabiyot durdonalari» to'plamining nashr etilishi Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasini ko'rsatadigan beqiyos loyiha bo'ldi.

Taqdimot marosimida so'zga chiqqanlar ushbu adabiy durdonaning nashr etilishi qardosh xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy do'stlik va birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishini alohida ta'kidladilar. Tantanali tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Odil Abdurahmonov ishtirok etdi.

Nazokat USMONOVA,
O'ZA muxbiri

FRAKSIYADA



Davlat byudjeti xarajatlarning asosiy qismini tashkil etgan ta'lim tizimiga byudjetdan 34,6 trln. so'm yo'naltirildi. Xususan, maktabgacha ta'limga 7 646,7 mlrd. so'm ajratilgan bo'lib, uning 7 167,8 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

QONUNLARIMIZ QAT'IYLAHISHI KERAK

(Boshlanishi 1-betda)

✓ **NEGA O'ZBEKISTONNING MAKTABGACHA TA'LIMGA E'TIBORI DUNYOGA NAMUNA BO'LMOQDA?**

– Samarqandda o'tgan Turkiy davlatlar tashkilotining tarixiy sammiti o'ziga xos ramziy ma'noga ega, – dedi A.Qodirov. – Tashkilotning ilk sammiti Samarqandda o'tgani ham bejiz emas. Ishtirokchi davlatlar tomonidan Samarqand «Turkiy sivilizatsiya poytaxti», deb e'lon qilindi. Chunki ko'hna shahar turkiy xalqlar tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan qadimiy poytaxtdir. Sammitda ko'plab muhim qarorlar qabul qilindi va shubhasiz ulardan eng muhimi «Turkiy dunyo nigohi – 2040» dasturidir. Unda tashkilotga a'zo davlatlarning 2040 yilgacha bo'lgan hamkorligi bo'yicha muhim vazifalar belgilab olindi, tashkilotning besh yillik strategiyasi tasdiqlandi.

✓ **ALISHER QODIROV BESH KUNLIK O'QUV TIZIMIGA O'TISH TAKLIFINI KIRITDI.**

Mamlakatimiz yana bir tarixiy anjuman – YUNESKO bilan hamkorlikda o'tkazilgan maktabgacha ta'lim masalasida xalqaro konferensiyaga ham mezbonlik qildi. Uning tarixiy shundaki, bugun O'zbekistonda maktabgacha ta'limga berilayotgan e'tibor dunyoga namuna bo'lmoqda. Agar biz tarbiyaga e'tibor bermasak, xalqimiz manfaatli yo'lidagi islohotlar kutilgan natijani bermaydi. Chunki barcha sohadagi o'zgarishlar samarasi inson omiliga, avvalo, uning qay darajada tarbiya olganiga bog'liq.

✓ **UMIDA RAHMONOVA MUZEYLAR MABLAG'INI, ABDUMALIK AKRAMOV ESA TARBIYACHILAR MAOSHINI IZLAB XUNOB BO'LMOQDA...**

Prezidentimizning jahon konferensiyasidagi ma'ruzasida ushbu soha rivojiga qaratilgan ko'plab muhim takliflar ilgari surildi. Jumladan, BMning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg'un bo'lgan barcha sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish uchun Toshkentda YUNESKONing mintaqaviy markazini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. Tarbiyaning yangicha uslublari va metodik qo'llanmalarni tayyorlash uchun keng qamrovli dastur ishlab chiqish taklifi ham muhim tashabbuslardan biri bo'ldi. Sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy interaktiv o'qitish uslublari, amaliy bilim va ko'nikmalar bilan o'zaro almashish maqsadida tarbiyachilar xalqaro hamjamiyatini tashkil etish taklifi ham ishtirokchi davlatlar tomonidan iliq qarshi olindi.

✓ **QOZOG'ISTON TURMALARIDA 651 NAFAR O'ZBEKISTON FUQAROSI O'TIRIBDI.**

– Bugun O'zbekiston butun dunyoga kelajak avlodni qanday tarbiyalash bo'yicha o'z takliflarini beryapti. Bu balandparvoz gap emas. Biz tarixda insonni qanday tarbiyalash kerakligini ko'rsata olgan millatimiz va Toshkentda bolalarni tarbiyalash bo'yicha 150 ga yaqin mamlakat vazirlari va vakillar hamda xalqaro tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida o'tgan xalqaro konferensiya ham buning bir isbotidir, – dedi A.Qodirov. Shundan so'ng deputatlar Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2022-yil 9 oylik ijrosini ko'rib chiqdilar.

✓ **MISR DAGI «HUIRA» LARGA 4 MINGGA YAQIN O'ZBEKISTONLIK BOLA NOQONUNIY O'QISHGA YUBORILGAN...**

Bugungi kunda dunyo bo'ylab kuzatilayotgan bir qator muammolarga qaramay, O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror o'sish sur'ati qayd etildi. 2022-yilning 9 oyi yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot 5,8 foizga, aholining real daromadi esa o'tgan yilga nisbatan 10,7 foizga o'sdi.

Hisobotda qayd etilishicha, davlat budjeti xarajatlarning asosiy qismini tashkil etgan ta'lim tizimiga byudjetdan 34,6 trln. so'm yo'naltirildi. Xususan, maktabgacha ta'limga 7 646,7 mlrd. so'm ajratilgan bo'lib, uning 7 167,8 mlrd. so'mi o'zlashtirildi. Natijada maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 224 taga ko'payib, umumiy soni 6 482 taga, qamrov darajasi esa 69,5 foizga yetdi. Umumiy ta'limga 23,4 trln. so'm ajratilgan bo'lib, bu ta'lim xarajatlarning 67,7 foizini tashkil qildi.

Deputatlar partiyaning maqsad



va vazifalaridan kelib chiqqan holda turizm rivoji bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni ham ko'rib chiqdilar. Jumladan, joriy yil mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 3,6 mln. nafarga yetib, xizmatlar eksporti 1 110,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shuningdek, mahalliy sayyohlar soni 8,5 mln. nafarga, turizm tashkilotlari soni esa 4 016 taga yetdi.

Fraksiya a'zosi Umida Rahmonova hukumat hisobotiga munosabat bildirar ekan, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli qarori bilan 2022-yilda muzeylarni kapital ta'mirlash uchun 8 mlrd. so'm mablag' ajratish va yil oxirigacha bu

natijasi kutganimizdek bo'lmaydi. Chunki bog'chada to'g'ri tarbiya qilinmagan bolani maktabda o'qituvchi eplay olmaydi. Avvalo, poydevor to'g'ri qo'yilishi lozim. Hozir 75 nafar tarbiyalanuvchiga 1 nafar oliy ma'lumotli tarbiyachi to'g'ri kelyapti. Oilamizda ba'zan birgina bolamiz tarbiyasiga chidolmay qolamiz. Endi 75 nafar bolani tarbiyalashni tasavvur qilavering. Shu bois, partiyamiz uchun bu masala ustuvor bo'lib qolaveradi, – dedi Alisher Qodirov.

Shuningdek, partiya yetakchisi maktablarda o'qish kunlarini bir kunga, ya'ni shanba kunini qisqartirib, besh kunlik qilish taklifini berdi. Bu o'qituvchilarga ham, o'quvchilarga

nazoratsiz qoldirilgani natijasida «hujra» markazlarida tartibsiz diniy ta'lim olishiga, ba'zan ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Xususan, 2019-yildan buyon diniy ta'lim olish uchun 4 mingga yaqin bola Misrga yuborilgan. Bugungi kunda ularning ming nafaridan ko'prog'i O'zbekistonga qaytarilgan, 2 ming nafarga yaqini Misrda istiqomat qilayotgan begona shaxslar qo'lida qoldirilgan. 200 nafaridan ortig'i ko'rilgan choralariga qaramasdan Misrdan Turkiyaga ko'chib o'tgan.

Qonunchilikda bu borada javobgarlik belgilanmagan sababli yuqorida ta'kidlab o'tilgan salbiy holatlar ko'payib bormoqda. Shu bois, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini 47^o-mudda bilan hamda Jinoyat kodeksini yangi 122^o-mudda bilan to'ldirish taklif qilinmoqda. Ya'ni, unga ko'ra voyaga yetmagan farzandini chet elga nazoratsiz tashlab kelgan yoki noqonuniy, ta'qiqlangan o'quv markazlariga bergan ota-ona farzandini bir oy ichida qaytarib olib kelishi lozim. Bu muddat yana bir oyga cho'zilib ham mumkin. Aks holda ota-ona dastlab ma'muriy, keyin jinoyi javobgarlikka tortiladi.

Germaniya qonunchiligida qaramog'idagi shaxsni uning hayotini o'lim xavfi ostida yoki jiddiy jarohat xavfi ostida bo'lgan holatda yordamsiz qoldirib ketish 3 oydan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan, Fransiya esa 15 yoshdan kichik bo'lgan voyaga yetmagan shaxsni qarovsiz qoldirib ketish 7 yil ozodlikdan mahrum qilish va 10 ming yevro jarima jazosi bilan jazolanadi.

Koreya Respublikasida keksaligi, go'dakligi, bemorligi yoki boshqa sabablarga ko'ra yordamga muhtoj shaxsni qonunga binoam yoki shartnomaga muvofiq himoya qilinishi lozim bo'lgan shaxs tomonidan tashlab ketganga 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki 5 million vongacha jarima belgilangan. Buyuk Britaniyaning «Yoshlar to'g'risida»gi Qonuni «Shafqatsiz muomala va ma'naviy yoki jismoniy xavfda qoldirish jinoyatlari» bo'limida bolaga g'amxo'rlik qilmaganlik, uni tashlab ketganlik yoki qarovsiz qoldirganlik uchun 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida ham ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanliklari belgilangan.

Fraksiya yig'ilishida kun tartibiga kiritilgan boshqa qonun loyihalari ham muhokama qilinib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri



MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSINI 47^o-MUDDA BILAN HAMDA JINOYAT KODEKSINI YANGI 122^o-MUDDA BILAN TO'LDIRISH TAKLIF QILINMOQDA. YA'NI, UNGA KO'RA VOYAGA YETMAGAN FARZANDINI CHET ELGA NAZORATSIZ TASHLAB KELGAN YOKI NOQONUNIY, TA'QIQLANGAN O'QUV MARKAZLARIGA BERGAN OTA-ONA FARZANDINI BIR OY ICHIDA QAYTARIB OLIB KELISHI LOZIM.

ishlarni yakuniga yetkazish vazifasi belgilanganini ta'kidladi.

– Ammo hududlarda ta'mirlash ko'zda tutilgan o'nta muzey rahbarlari bilan gaplashganimizda ular hatto ajratilgan mablag'lardan xabarsiz ekanliklarini aytishdi. Buni hukumat vakillari qanday izohlaydilar, nima uchun ajratilgan mablag' muzeylarga yetib bormagan. Muzeylar ta'mirini bir kunga kechiktirish, juda katta yo'qotish deganiku, – dedi fraksiya a'zosi.

Moliya vaziri o'rinbosari Dilshod Sulonov bunga izoh berar ekan, bu masala yaqinda hukumat tomonidan tanqidiy ko'rib chiqilganini, muammo mablag' bilan bog'liq emas, balki muzeylarni ta'mirlash bo'yicha tender va tashkiliy ishlarning o'z vaqtida bajarilmaganini bilan bog'liqligini aytdi.

Abdumalik Akromov esa «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi maktabgacha ta'lim tizimida ishlayotgan xodimlarning ish haqini oshirish masalasini bir necha yildan buyon ko'tarib kelayotgani, lekin hukumat bunga e'tibor qaratmayotganini tanqid qildi.

Maktabgacha ta'lim vazirligi vakili bunga javob berar ekan, hozirda hisob-kitob ishlari olib borilayotganini, buning uchun 2,5 trln. so'm mablag' zarurligini, ayni paytda bu mablag'ni qayerdan olish ko'rib chiqilayotganini, shu bois, bu masalani hal qilish 2023-yilda ham ko'zda tutilmaganini ta'kidladi.

– Ushbu masala tezroq hal qilinmasa, bu boradagi ishlarimiz

ham foyda ekanini, xorijda besh kunlik ta'lim yaxshi natija berayotganini ta'kidladi.

Deputatlar «O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jazoni o'tashni davom ettirish uchun topshirish to'g'risidagi shartnomani (Nur-Sulton, 2021-yil 6-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida»gi qonuni loyihasi ham muhokama qilib, uni bir ovozdan ma'qulladilar.

Ushbu qonun loyihasi ozodlikdan mahrum etilgan chet el fuqarolariga belgilangan jazoni o'z davlatida o'tashlari uchun imkoniyat yaratadi. Hozircha 7 ta davlat, jumladan, BAA, Gruziya, Latviya, Ozarbayjon, Turkiya, Turkmaniston, Ukraina bilan shunday shartnomalar imzolangan.

Ma'lumotlarga qaraganda, ayni paytda O'zbekistonning 651 nafar fuqarosi Qozog'istonda jazo muddatini o'tamoqda. Mamlakatimizda esa qozog'istonlik mahbuslar soni 20 nafarni tashkil qiladi.

Yig'ilishda «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga bola huquqlari himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonuni loyihasi ham ko'rib chiqildi.

Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda diniy bilim olishga intilayotgan yoshlar ko'paymoqda. Ammo ularning bu borada tasavvurga ega bo'lmaganini, ota-onalari yoki yaqinlari tomonidan

✓ E'tirof

Bugun Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) bosh direktorining sobiq maslahatchisi Kari Tapiolning «Paxta dalalaridagi ishonchni mustahkamlash: XMTning O'zbekistondagi faoliyati» nomli monografiyasi taqdimotida qatnashdim. Ishonchim komilki, ushbu kitob barcha kitobxonlar, oliy o'quv yurtlari talabalari, mehnat sohasi mutaxassislari uchun foydali bo'ladi.

Bugungi kunda keng xalqaro hamjamiyat O'zbekistonning bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo'yicha o'ziga xos milliy tajribasi ko'plab davlatlar uchun namuna bo'lishi kerakligini tasdiqlamoqda. Shu o'rinda, bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar hali yetarilgini ham anglab turibmiz.

Biz nafaqat bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berishga erishdik, balki shu yo'l bilan zimmamizga boshqa sohalarda ham ushbu ochiq, umuman e'tirof etilgan

yondashuvlarni qo'llash majburiyatini oldik. Endi esa bu standartlarni barcha sohalarda joriy etish ustida ishlaymiz. Yangi ish o'rinlarini nafaqat son, balki sifat jihatidan, inklyuzivlik, gender tengligi, munosib mehnat tamoyillarini hisobga olgan holda yaratish hozir biz uchun eng muhim vazifadir. Bu jarayonda to'xtab qolmaslik nihoyatda muhim. Bu borada yo'lga qo'yilgan ishlarni va fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolarimiz bilan ijtimoiy muloqotni davom ettirish zarur.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlamochimanki, O'zbekiston XMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan tomonlarni qiziqtirgan barcha masalalar bo'yicha hamkorlikni davom ettirishga tayyorligini yana bir bor tasdiqlaymiz. O'zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun salohiyatimiz yetarli ekanligiga ishonaman.

@tanzilanarbaeva





DEKOLONIAL STRATEGLARGA EHTIYOJ BOR EDI...

Ruslanbek Davletovning Prezidentning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimiga tayinlanishi, o'ylaymanki, keyingi paytda qabul qilingan eng oqilona qarorlardan biri bo'ldi. Nega? Chunki aynan ijtimoiy-siyosiy jabhada professional strateglarga kuchli ehtiyoj sezilayotgan edi. Masalan, mamlakatning tashqi siyosatida ham, mamlakat ichkarisida ham qarashlari, siyosat yuritish formati o'zgarishga yuz burdi. Biroq bu yangi siyosatga jamiyat tafakkurini moslash, yoki aksincha, ana shu siyosatni jamiyat zehniyatiga balanslash masalasi ochiq qolib ketayotgandi. Boshqacha aytganda XX asr, xususan, kolonial va qisman postkolonial davr ta'limoti bilan "qurollangan" strateglarimiz mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning falsafasiga moslasholmay qoldi yoki bunga salohiyatlari yetishmadi. Yangi zamonga moslashish, bugungi dunyo bilan moslashishga ayni sohadagi gerontokratiya (keksa avlod hokimiyati) sabab bo'lgani bugun ko'pchilikka sir emas. Shu ma'noda, Ruslanbek Davletovning katta sahnaga chiqishi, nafaqat ijtimoiy-siyosiy islohotlar, balki jamiyat siyosiy tafakkuri va hatto madaniyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynashi mumkin. U o'z sohasining professional ekanini Adliya vaziri lavozimidagi uzoq yillik faoliyatida ko'rdik. Bundan tashqari, xohlagan odamni davradagi bir-ikki og'iz gapi yoki harakatidan

bilib olsa bo'ladi. Davletov o'zbek siyosiy elitasi orasida ijtimoiy tarmoqlarda «qovun» tushirilmagan va tuturuqsiz chaqiriq yoki qarorlari bilan sazoyi bo'lmagan yagona ayonlardan biri hamdir. Qolaversa, undagi intellekt ham bugungi kunning juda kam odamlariga nasib qilgan, deb o'ylayman. Mana, qarang, uning 2019-yil o'tkazilgan «O'zbekistonda rahbarlar qaysi kitoblarni sevib o'qiydi?» nomli so'rovnoma javoblari:
1. Xingiz Aytmatov. «Asrga tatigulik kun».
2. Richard Sasskind. «Kelajak yuristlari».
3. Samuel Xantington. «Tamaddunlar to'qnashuvi». Bu o'rinda men u keltirgan asarlardan uchinchisiga to'xtalmoqchi edim. Xantingtonning ushbu asariga ko'pchilik tomonidan «yangi dunyo» konsepsiyasi sifatida qaralayotgani va atrofida juda ko'p tarafdorlari paydo bo'layotganini nafaqat jamiyatimiz, balki muhtaram klassik akademik doiralrimiz ham bilmasligiga, bu kitob tugul, dunyoda shunday olim borligi va ta'limot paydo bo'lganiyu, u ilgari surilayotganidan xabardor ekaniga rosti ikkilanaman. Davletovning bu asarni sarlavhaga olib chiqishi, albatta, uning dunyoqarashini ko'rsatadi. Ayni shu so'rovnomada Komil Allamjonovning javoblari ham berilgan ekan. U N.Makivellining «Hukmdor», Sohobqironning «Temur tuzuklari» hamda «Kichik shahzoda» asarlarini ko'rsatgan...

@platformauz

O'ZBEK TILI BAYRAMINI HAM ISHLANMAYDIGAN BAYRAMLAR QATORIGA QO'SHISH KERAK



Jahongir ZIYAYEV, xalq deputatlari Mirzo Ulug'bek tuman Kengashi deputati

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksiga kiritilgan o'zgarishlarni tahlil qilib, haqiqatan ham 1995-yilda qabul qilingan Kodeksning bugungi talablarga javob bermay qolganiga amin bo'ldim. Qayd etish kerakki, Yangi kodeksda bayramlar shanba yoki yakshanba kuniga to'g'ri kelib qolsa, uni boshqa ish kuniga ko'chirish bo'yicha yangi norma kiritilgani ko'pchilik uchun kutilmagan yangilik bo'ldi. Amaldagi kodeksga ko'ra, bayram qaysi kunga to'g'ri kelsa, o'sha kuni nishonlanar, boshqa ish kuniga ko'chirish haqida o'ylab ham ko'rilmagan edi. Ma'lumki, qonun bilan tasdiqlangan rasmiy bayramlarimiz soni 30 tani tashkil etadi. Shundan 9 tasi ishlanmaydigan, qolgan 21 tasi esa ishlanadigan bayram kunlaridir. Mehnat kodeksining 131-moddasida O'zbekistonda 9 ta bayram ishlanmaydigan kun sifatida belgilangan. Ular: 1-yanvar – Yangi yil, 8-mart – Xotin-qizlar kuni, 21-mart

– Navro'z bayrami, 9-may – Xotira va qadrlash kuni, 1-sentyabr – Mustaqillik kuni, 1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni, 8-dekabr – Konstitutsiya kuni hamda Ro'za va Qurbon hayitining birinchi kunlari. Yaqinda esa Prezidentimiz Kasaba uyushmalari xodimlari kuni munosabati bilan 11-noyabrni «Umumxalq bayrami» sifatida dam olish kuni deb e'lon qilish taklifini bildirdilar. Agar taklif ma'qullansa, keyingi yildan mazkur sana ham dam olish kuniga aylandi. Demak, qolgan bayramlarda ishlaymiz. Lekin «ishlanmaydigan kunlar»imiz xorijiy davlatlarimizga qaraganda kam ekan, hatto yon qo'shnilarimizdan ham. Masalan, Kambodja eng ko'p rasmiy dam olish kuniga ega (28 ta) davlatlardan biri hisoblanadi. Shri-Lankada esa bayramlar soni 25 ta, ko'p millatli Hindistonda rasmiy dam olish kunlari 21 tani tashkil qilarkan. Keyingi o'rinlarni Qozog'iston (21 ta), Kolumbiya, Filippin (18 ta), Xitoy (17 ta)

va Turkiya (16 ta) egallagan. Ma'lumki, 21-oktyabr – Ona tilimizga Davlat tili maqomi berilgan kun bo'lib, shu kuni milliy qadriyatlarimiz gultoji sifatida til bayrami keng nishonlanadi. Ushbu sanani «O'zbek tili bayrami kuni» sifatida nishonlash bo'yicha Qonun ham qabul qilingan. Lekin dam olish kuni emas. Tilimiz xalqimizning dunyoda borligini ko'rsatuvchi asosiy mayog ekan, nima uchun 21-oktyabrni ham ishlanmaydigan bayramlar qatoriga qo'shmasligimiz kerak. Hatto bunday bayramlarga Gerb, Bayroq va Madhiyamiz qabul qilingan sanalarni ham qo'shishga hech kim qarshilik qilmaydi. Bu bugun davlatlar chegaralariga, xavfsizligiga, mustaqilligiga bo'lgan xatarlar, ziddiyatlar borgan sari kuchayayotgan bir paytda nihoyatda muhim emasmi? Agar ushbu muhim sanalar ham dam olinadigan bayramlar qatoriga qo'shilsa, xalqimizning bu bayramlarga bo'lgan munosabati tubdan o'zgarar bo'lardi.

«TIL POSBONLARI» BIRLASHMOQDA!



Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir.

Zero, til millatning mavjudligini belgilaydigan asosiy omildir. Milliy til xalqimizni hamjihatlikda taraqqiyot sari boshlaydi. Xalqni yanada jipslashishga, milliy qadriyatlarini asrab-avaylashga undaydi. Til bor ekan – millat barqaror! Yaqindagina o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 33 yilligi hamda 21-oktyabr – O'zbek tili bayrami kuni yurtimizda keng nishonlandi. Bayram munosabati bilan Davlatimiz rahbarining O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigida oxirgi uch yilda o'zbek tilining davlat tili sifatida rivojlanishi, jamiyatimizda keng qo'llanishi va ilmfan sifatida taraqqiyot etishida 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan davlat tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining qabul qilinganligi alohida ahamiyat kasb etganligi ta'kidlandi. Ayniqsa, tilimizning sofligini saqlash, uni boyitish va takomillashtirish borasidagi dolzarb vazifalar belgilab berildi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish, tilimizni asrab-avaylash, rivojlangan dunyo tillari darajasida taraqqiyot etishiga munosib hissa qo'shishimiz har birimizning burchimiz. Bugungi kunda oddiy lug'atdan tortib milliy til korpusini yaratishgacha jarayonlarda olib borilayotgan sa'y-harakatlar natijasida davlat

tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvi ta'minlanmoqda. O'zbek tilidagi matnlar tahririga mo'ljallangan kompyuter dasturlarini yaratishga kirishgan talaba-yoshlar dasturiy mahsulotlarini Internet tizimiga joylashtirmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar tomonidan tashkil etilgan «Til tilsimi», «Notiqlik san'ati», «Nutq madaniyati», «Yosh tilshunos» klublari faoliyat olib bormoqda. Jamiyatda davlat tilining keng qo'llanilishini ta'minlash va tengdoshlarining savodxonligini oshirishga qaratilgan maqsad yo'lida talabalar ko'ngillilar harakatiga birlashganlar. Tilimizga hurmat va muhabbatni tarbiyalash, uni asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga sofligicha yetkazish, uni boyitib borish va jozibadorligini oshirishda barcha kuchlar birlashsagina o'z maqsadlarimizga erishishimiz mumkin. Oliy ta'lim muassasalaridagi ko'ngilli talabalar guruhlari bilan «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining «Ayollar va Yoshlar» qanoti kuchlari ana shunday maqsad yo'lida birlashmoqdalar.

Odinaxon JAMOLDINOVA,
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining
maslahatchisi.

Uchrashuv

CHEMPIONNING Onasi



«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashining «Ayollar va Yoshlar» qanoti tashabbusi bilan mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilib kelayotgan yengilmas bokschi, «O'zbekiston iftixori» hamda «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni sohibi, 2020-yilgi Olimpiya o'yinlari g'olibi, uch karra Osiyo chempioni Bahodir Jalolovning onasi Sabohat Jalolova bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Quloqqa juda yoqimli eshitiladigan bunday ta'rifni o'z ismiga qo'shib eshitishni xohlamaydigan ona topilmasa kerak. Lekin birgina xohish bilan bunga erishib bo'lganida edi... Bunday maqom va martabaga erishishni istagan har bir ona bolasi bilan sportning mashaqqatli yo'llaridan qadam-baqadam borishi kerak bo'ladi. G'alaba nashidasiyu, mag'lubiyat alamini ham birga totishi, farzandi olis yurtlarga bellashuvga ketganida yuragiga tosh solib, yo'lga ko'z tikishi, bir so'z bilan aytganda, sport odamiga aylanishi kerak. Lekin bu "yuk"ni har qanday ona ham

o'z yelkasiga olavermaydi; qay bir ona bunday yumushga fursat topa olmasa, yana kimlardir suyuqlik farzandini shirin uyqudan uyg'otishga ko'zi qiymaydi, ya'ni mashg'ulotlar mashaqqatidan ayaydi. Zero, bolalikning jo'shqin hissiyotlari intizom qolqlariga har doim ham sig'avermaydi... Davra suhbatida aynan shular – ulkan g'alabalar ortidagi mashaqqatlar haqida so'z bordi. Sabohat opa xalqimizning faxri va g'ururiga aylangan o'g'lining sport olamiga ilk qadam qo'ygan onalaridan professional bokschilikka bosib o'tgan yo'li haqida to'liq tahlil berdi. Uning har bir

g'alabasi ortida qanchadan-qancha mashaqqat yotishini ta'kidlab, qiyinchiliklar sabr bilan yengib o'tilganligiga maqsadga erishish mumkinligini yashirmadi. Shuningdek, chempionning onasi bo'lish baxti har qanday ayol qalbida faxr va iftixor tuyg'ularini uyg'otishi barobarida, zimmasiga juda katta mas'uliyat ham yuklashi haqida gapirib, yosh sportchilarni tarbiyalayotgan onalarga, oila qurish bo'sag'asidagi qizlarga farzand tarbiyasi borasida bir qator maslahatlarini berdi. – O'g'lingizning ringdagi janjallarini bemalol tomosha qila olasizmi? Yoki aksariyat bokschilarning

onalari kabi natijani eshitib qo'ya qolasizmi? – Yo'q, to'g'ridan-to'g'ri namoyishni ko'ra olmayman, yozib olinganini ko'raman. Chunki nafaqat o'g'lim, balki raqibining ham jiddiy jarohat olishini istamayman. Yaqinda bir jangda Bahodir raqibini nakaut holatiga tushirib qo'yd. O'sha yigitning onasi o'rniga o'zimga qo'yib ko'rdim, unga qanchalar og'ir ekanini his etganim uchun ham, ishonasizmi, tungi soat uchlarda o'g'limga qo'ng'iroq qilib, o'sha yigit o'ziga keldim, deb so'radim... Savol-javoblar qizigandan qizidi, bir soatga mo'ljallangan davra suhbatini ikki soatdan ziyod davom etdi.

Chempionning onasi tadbir ishtirokchilarini qiziqirgan barcha savollarga javob qaytardi. «O'g'lingizga jismiga monand Bahodir ismini kim qo'ygan?» deya savol bergan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi Charos Olimovani «Eng yaxshi savol muallifi» deb topib, unga o'g'lining sevimli shoiri Erkin Vohidovning «Tanlangan asarlar» kitobini sovg'a qildi. Davra suhbatida barcha ishtirokchilarda iliq taassurot qoldirdi.

Feruza JALILOVA,
partiya Markaziy kengashi
bo'lim boshlig'i



Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi esa «2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturining 135-bandiga asosan ishlab chiqilgan.

10 DAN ORTIQ XALQARO TASHKILOT VA XMTNING BIR QATOR KONVENSIYALARI MAZMUNI HAMDA 60 DAN ZIYOD DAVLAT TAJRIBASI SINGDIRILGAN

MEHNAT KODEKSI XALQIMIZGA NIMA BERADI?



Odiljon TOJIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi Spikerining
o'rinbosari

Har qanday jamiyat boyligining manbai hamda insoniyat tomonidan moddiy va ma'naviy boyluk yaratishning asosiy omili, shubhasiz, MEHNATdir. Jamiyatning ijtimoiy shakli qanday bo'lishidan qat'i nazar, mehnat, moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarishda eng birlamchi faoliyat bo'lib qolaveradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligiga, uning hayot darajasi va sifatiga qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani bilan o'lchanadi. Bu o'zgarishlar, umuman, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida dastlab mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi milliy qonun va qonunosti hujjatlarni zamon talabi asosida takomillashtirish, ularda umume'tirof etilgan tamoyillarni qamrab olishni taqozo etadi.

Deputatlarimiz tomonidan maromiga yetkazilgan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi 2021-yilda Senatga yuborilgan edi. Prezidentimiz 25-oktyabr kuni Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazgan videoselektor yig'ilishida esa ushbu kodeksga to'xtalib, qonunchilikni kiritilayotgan yangiliklarni xalqimizga, ish beruvchi va ishchilarga sodda tilda tushuntirish kerakligiga alohida e'tibor qaratildi.

Nihoyat, uzoq kutilgan kunlar ham keldi. Prezident tomonidan 2022-yil 28-oktyabr kuni «O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqlash to'g'risidagi qonun imzolandi. Rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran 6 oy o'tgach kuchga kiradigan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksimiz aholi, ayniqsa, ijtimoiy ehtiyojmand toifalarni ishga joylashtirish bo'yicha qo'shimcha kafolatlarni bilan to'ldirilgan nihoyatda ahamiyatlidir.

Uzoq yillar davomida ehtiyojmand, kam ta'minlangan aholiga moddiy-ma'naviy ko'mak berilgani haqida ko'p gapirilib, balandparvoz hisobotlar topshirildi. Ammo ularning bandligini ta'minlash, «qo'lga baliq emas, baliq tutishga qarmoq berish» haqida fundamental qaror va amallarga deyarli qo'l urilmadi. Hatto bizda «kambag'allar» borligini tan olmaslikka ham ko'nirik qolgandik. Bu bilan kam ta'minlangan aholining kosasi oqarmadi, biri ikki bo'lmadi. Qo'l bilan berganga qush to'yamas deganlaridek, ehtiyojmand aholiga ajratilgan moddiy yordam ularning unib-o'sishi, rivojlanishiga xizmat qilmadi.

E'tiborlisi, O'zbekiston tarixida ilk marotaba, ya'ni 2020-yilning yanvar oyida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida har qanday mamlakatda bo'lgani

kabi, bizda ham kambag'al aholi qatlami mavjudligini ochiq aytdi. Ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to'lash yoki ular miqdorini oshirish orqali kambag'allik muammosini hal qilish mumkin, deb hisoblash – bir tomonlama yondashuv bo'lib, muammoni to'la yechish imkonini bermasligi ta'kidlandi.

Shuningdek, kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, yangi ish o'rinlari yaratish kabi kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha muhim qadamlarni qo'yish kerakligi qayd etildi.

Aytish joizki, tarixiy Murojaatnomadagi o'sha ruh, kayfiyat bugunga kelib yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida o'z mujassamini topdi. Ya'ni, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari va ularning aniq mezonlari yangi kodeksdan o'rin oldi.

Xususan, 14 yoshga to'lmagan, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz ota-ona, shuningdek, ko'p bolali oilalardagi ota-onalar, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablari va kollejlari hamda texnikumlarini tamomlab kasbga ega bo'lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylari bitiruvchilari, oliy ta'lim tashkilotlarining davlat granti bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilar, nogironligi bo'lgan, pensiyasiz yoshdagi shaxslar, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati qo'shinlarida muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlor choralari qo'llanilgan shaxslar hamda odam savdosidan jabrlanganlar aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga kiritildi.

YANGI TAHRIRDAGI KODEKS QABUL QILINISHINING ZARURATI NIMALARDA KO'RINADI?

O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb etish va o'qitish, o'zini o'zi band qilish faoliyati «mahallabay» ishlagan qaratilgan vertikal tizim asosida yuritilayotgani turmush farovonligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Bu boradagi ishlar, shuningdek, so'nggi yillarda O'zbekiston va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) o'rtasida majburiy mehnatga qarshi kurashish, mehnat huquqlariga rioya etilishini monitoring qilish, mehnat sohasiga oid xalqaro standartlarni joriy etish borasida tizimli ishlar olib borilayotgani xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e'tirof etilmoqda.

Ammo ayni paytda xalqaro ekspertlarning, XMTning tavsiya va takliflari tahlili shuni ko'rsatdiki, amaldagi Mehnat kodeksi mamlakatimizda ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish, jumladan, investitsiya muhitini yaxshilash, ish bilan ta'minlashning zamonaviy shakllari hamda kasb-hunarga o'qitish tizimlarini joriy etish borasidagi keng ko'lami islohotlarga mos kelmay qolgan edi. Kodeks qabul qilingan vaqtda xususiy sektor ulushi atigi 21 foiz bo'lgan, hozir bu ko'rsatkich 83 foizdan oshdi. Qolaversa, unda jadal rivojlanib borayotgan mehnat bozorida yuzaga kelgan zamonaviy mehnat

turlariga oid munosabatlar hamda raqamlashtirish texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari hisobga olinmagandi.

So'nggi yillarda chindan ham mehnat bozorida vaziyat o'zgardi. Sohaga oid qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida ko'pgina yangi institutlar hamda yangi mexanizmlar amaliyotga kiritildi. Bu ham kodeksning yangi tahrirdagisini qabul qilish zarurati yuzaga keltirdi, deyish mumkin.

Ma'lumki, amaldagi Mehnat kodeksi bozor iqtisodiyotiga o'tish vaqtida, ya'ni 1995-yilda qabul qilingan bo'lib, u 2 qism, 16 bob va 294 maddadan iborat edi. Kodeks normalarida aytish joizki, davlat tashkilotlari va sanoatning yirik korxonalari hamda turli mulkchilik shakllari, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlaridagi mehnat munosabatlari aks ettirilmagandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi tomonidan so'nggi yillarda ratifikatsiya qilingan ayrim xalqaro konvensiyalar va hujjatlar me'yorlari implementatsiya qilinmagan edi.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi esa «2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturining 135-bandiga asosan ishlab chiqilganini ta'kidlash joiz.

Kodeks loyihasini ishlab chiqish jarayonida 10 dan ortiq xalqaro tashkilot, jumladan, Xalqaro mehnat tashkilotining qator konvensiyalari, 60 dan ziyod davlat tajribasi o'rganildi.

O'ZGARISHLAR MOHIYATI

Yangi tahrirdagi kodeks hatto hajm jihatidan ham amaldagiga nisbatan 3 barobar katta bo'lib, jami 600 ga yaqin maddani o'z ichiga olgan. Unga bandlik, individual mehnat munosabatlari, xodimlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ayrim toifadagi xodimlar mehnatini tartibga solish xususiyatlari, xodimlarning mehnat huquqini himoya qilish, mehnat nizolarini ko'rib chiqish nazarida tutuvchi normalar ham qo'shildi.

O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarini muhokama qilish portalida (regulation.gov.uz) uch marotaba jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan kodeks loyihasida XMT konvensiyalari hamda xalqaro shartnomalarda belgilangan qoida va me'yorlar o'z aksini topdi. Bundan tashqari, xalqaro ekspertlar, XMTning tavsiya va takliflari inobatga olindi. Ishchi hamda ish beruvchining huquq va majburiyatlariga aniqlik kiritilib, ularning qo'llanilish doirasi ham kengaytirildi.

XODIM VA ISH BERUVCHILARGA NISBATAN QO'LLANILAYOTGAN YANGI NORMALAR

Yangi tahrirdagi Kodeksda mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitish, mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash, mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik, mehnat huquqlari ta'minlanishi va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlangani hamda xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'yilmasligi yakkatartibdagi

mehnatga oid munosabatlar va ular bilan bevosita bog'liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy prinsiplari sifatida belgilab qo'yildi.

Yangi kodeks bandlik, individual mehnat munosabatlari, xodimlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ayrim toifadagi xodimlar mehnatini tartibga solish xususiyatlari, xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, mehnat nizolarini ko'rib chiqish kabi normalarni ham o'z ichiga oladi. Hujjatning 175-moddasiga hatto xodimning shaxsiga doir ma'lumotlariga oid yangi normalar kiritildi.

Prezidentimizning 2019-yil 31-oktyabrda «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga muvofiq, mehnat shartnomasini tuzish

mehnat shartnomasi tuzilishi mumkin bo'lgan maksimal muddatni 5 yildan 3 yilgacha kamaytirish huquqi beriladi.

Kodeksga dam olish kunini davlat bayramlari (ishlanmaydigan bayram kunlari) kunlariga to'g'ri kelgan taqdirda ko'chirish qoidasi ham kiritildi. Mehnat ta'limining minimal davomiyligi kalendar kunlarda (15 ish kuni o'rniga 21 kalendar kuni) belgilandi. Shuningdek, xodimni boshqa ish beruvchiga xizmat safariga yuborish tartibi mustahkamlandi.

Ma'lumki, har qanday jamoaning muvaffaqiyati rahbarning salohiyati, boshqaruv uslubi, tashabbuskorligi, va albatta, zamonaviy fikrlashga bog'liq. Shuning uchun ham tashkilot, idorada qanday shaxs rahbar bo'lishi doimo muhim bo'lib kelgan. Shu bois, yangi tahrirdagi kodeksda ayrim

belgilaydigan, shuningdek, ish haqi to'lanmagan ta'lini 6 oygacha uzaytiradigan me'yorlar joriy etiladi.

Mehnat nizolarini ko'rib chiqish jarayonida jamoatchilik nazorati mexanizmlari ham aks ettirildi. Yakkala mehnat nizolari komissiyalarda yoki sudda hal etilishi holatlari ko'rsatilib, yakkala mehnat nizoci mediatorga yuborilishini joriy etish, mehnat arbitraj tizimi yo'lga qo'yiladi.

Nizolarni muqobil hal qilishning imkoniyatlari kengaytirilib, sudlardagi ish hajmi kamaytirildi. Ayrim toifadagi xodimlarning mehnat huquqiy jihatdan tartibga solindi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotiga ko'ra, 2022-yilning 1-yanvar holati bo'yicha mehnat resurslari soni 19,3 million kishini tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 1,1 foizga yoki 202,6 ming kishiga oshgan. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar soni 13,5 million kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 foizga (299,3 ming kishiga) ko'paygan.

2021-yil yanvar-dekabr oylarida tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga 879,5 ming fuqaro ish topish masalasida yordam so'rab murojaat qilgan. Murojaat qilgan fuqarolarning 393,8 mingi ish bilan ta'minlangan.

XULOSA O'RNIDA

Bugun dunyoda bo'lganidek, mamlakatimizda ham aholi bandlik masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Prezidentimizning har bir chiqishlari, hududlarga tashriflari chorida bugungi islohotlar zamirida xalqimiz roziligiga erishish, tadbirkorlikka erkinlik berish orqali yangi ish o'rinlarini ko'paytirishga asosiy e'tiborni qaratayotganlari bejiz emas.

Mamlakat qachon rivojlanadi? Qachonki, xalq boy bo'lsa, odamlarning daromadi o'zi va oilasini ta'minlashga yetsa, ishlagan, mehnat qilgan inson mehnatiga yarasha haq va munosabatga ega bo'lsa. Buning uchun esa ushbu masalalarni tartibga soluvchi qonunchilikning mavjud bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Mehnat bozorining kelajakdagi rivoji uchun xizmat qiladigan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi mamlakatimizda ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish, jumladan, investitsiya muhitini yaxshilash borasida mamlakatimiz mehnat qonunchiligini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Mazkur kodeks istiqbolda kichik biznes subyektlari va yakkala tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan aholi mehnatini huquqiy tartibga solishga ham imkon beradi. Rasmiy va norasmiy tarmoqlarda mavsumiy ish bilan band bo'lganlarning mehnat huquqlarini tartibga solishdagi bo'shliqlar va qarama-qarshiliklarni ham bartaraf etadi. Bir so'z bilan aytganda, Mehnat munosabatlarida korruptsiya xavfi kamayib, «Yagona milliy mehnat tizimi» raqamlashtiriladi.

Yangi Kodeksda sohadagi qator muammolar, mehnat bozorida vaziyat inobatga olinib, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, ishlagan ishga, ish beruvchi esa kiritgan sar moyasiga munosib tarzda e'tibor va rag'batga ega bo'lishi kafolatlanadi.

3 YILGACHA ISH STAJIGA EGA XODIMLARGA BERILADIGAN ISHDAN BO'SHATISH NAFAQASI O'RTACHA OYLIK ISH HAQINING 50 FOIZIDAN, 15 YILDAN ORTIQ ISH STAJIGA EGA XODIMLARGA AJRATILADIGAN ISHDAN BO'SHATISH NAFAQASI ESA O'RTACHA OYLIK ISH HAQINING 200 FOIZIDAN KAM BO'LMASLIGI BELGILANGAN.

va bekor qilish, shuningdek, unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksida ro'yxatdan o'tkazilishi shartligi xodimning shaxsiga doir ma'lumotlarini himoya qilishga xizmat qilmoqda. Muhimi, mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra yoki xodimning pensiya yoshiga to'lishi munosabati bilan bekor qilishni taqiqlash nazarda tutildi. Zotan, amaldagi kodeksda mavjud bo'radagi bo'shliqlar Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnat va bandlik sohasidagi kamsitishlarni bartaraf etish to'g'risidagi konvensiyasiga mos kelmas edi.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida ijtimoiy va huquqiy himoyaga muhojir ishchilarning ayrim toifalari – ayollar va oilaviy majburiyatlarini bajarish bilan shug'ullanadigan shaxslar, 18 yoshga to'lmagan ishchilar, nogironlar, o'rindoshlik asosida ishlovchilar, yakkala tartibdagi tadbirkorlar mehnatini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari aks etgan. Masalan, ish beruvchi homilador ayollarga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida antenatal (tug'ruqqacha) parvarishlash (perinatal skrining) va tashxis, majburiy tibbiy ko'rik va boshqa majburiy tibbiy muolajalar) uchun o'rta haq saqlangan holda qo'shimcha bo'sh kunlarni berishi lozim bo'ladi.

Xodimning ish stajiga qarab ishdan bo'shatish nafaqasini tabaqalashtirish va bunda aynan ushbu tashkilotda ishlagan muddatini inobatga olish nazarda tutilgan. Deylik, 3 yilgacha ish stajiga ega xodimlarga beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi o'rtacha oylik ish haqining 50 foizidan, 15 yildan ortiq ish stajiga ega xodimlarga ajratiladigan ishdan bo'shatish nafaqasi esa o'rtacha oylik ish haqining 200 foizidan kam bo'lmagligi belgilangan. Ish beruvchiga esa xodimlar bilan muddatsiz mehnat shartnomasi tuzish, shuningdek, muddatli

Turli ifoda usullarini tanlagan yosh ijodkorlarni bitta umumiy xususiyat birlashtirib turadi. Bu ham bo'lsa, ular o'zlariga haqida ham, mayllari haqida, ehtirosu qarashlari haqida ham, voqelik haqida ham yolg'on gapirishni, ommaviy ko'nikmalarga, ommaviy siyqalikalarga, mavjud qarashlarga bo'syunishni istamayotgani.

«IZLAM»

TURKUMI JAMIYAT OLDIGA QANDAY SAVOLLARNI QO'YDI?

«Adabiyotni kimlar yangilaydi?!» degan savolga bir so'z bilan «iste'dodlar» deb javob berish ham mumkin, albatta. Ammo bu javobdan so'ng yana o'nlab savollar paydo bo'ladi. Xususan, adabiyotda yangilanish ehtiyoji qayerda va qay holatda o'zini namoyon qiladi? U qachon o'zida yangilanishga zarurat sezadi? Uning yangilanishi faqat iste'dodlar bilan bog'liqmi? Yangilanish degani uning bugungi mavjudligini inkor qilish, tan olmaslik orqali yuz beradimi yoki shu mavjudlik ustida paydo bo'ladimi? O'ngga, borliqqa, voqelikka munosabat yangilanmasdan turib ham adabiyot yangilanadimi? Xullas, ko'plab ilmiy ishlarga mavzu bo'ladigan savollar kelaveradi.

Qanday savol bo'lmasin, san'at, xususan, adabiyot davr ruhini boshqa sohalardan ko'ra ertaroq anglaydi, munosabat bildiradi. Bil'aks, ana shu anglanma adabiyotni ham, iste'dodni ham yangilaydi.

Bugungi dunyo san'atining asosiy og'riqlaridan biri bu — shaxsning yemirilishi, yolg'izlanishi, mavjud universal xulosalardan o'zligini topolmagan individning mavjudlikka o'zi javob izlashi. Uning muhit bilan, qarshisidagi voqelik bilan til topisha olmasligi, voqelik oldida o'zining o'zligini his qilishi, unga o'zini begona va omonat sezishi.

Bizda haligacha bunday dunyoqarash, ya'ni olamni individ ko'zi bilan idrok qilish ildizini chetdan izlash an'anasi, unga «import» to'ni kiydirishga moyillik kuchli. Go'yo shunday yo'l tanlansa, bunaqa idrok qilish kasalligi bizga yuqum qoladi, bizdan uzoqlashadi yoxud oldi olinadi. Ammo bugun dunyoning narigi chekkasida paydo bo'lgan oddiy elektron qurilma zudlik bilan dunyoning boshqa burchaklariga tarqalgani kabi, ayni shu elektron qurilmaning yarialishida his qilingan dunyoqarash ham ma'lum ma'noda bizga ko'rinmasdan tarqalishini ko'p ham hisobga olavermaymiz.

Adabiyot insonshunoslik ekan, inson qarashlarini tutumlari bilan birga hamisha o'zgarishda va o'sishda bo'ladi. Insonning ruhoniy tal'ati ijtimoiy ongdan ko'ra, eng avvalo, san'atda o'zini ko'rsata boshlaydi. Chunki san'at, ato etilgan iste'dodlar evaziga bu sezimlarni hammadan oldin his qiladi, uni anglashga va ijtimoiy muhokamaga qo'yishga intiladi. Shu sababli ham har avlod insoniga, olamga, arxetiplarga munosabat masalasida o'z qarashlari va ifoda usullari bilan san'atga kirib keladi. Insonning qarashlari yangilanyaptimi, uning olam va falakdagi, jamiyatdagi, muhitdagi, qarashlaridagi o'rniga, umuman, jamlab aytganda, ijtimoiy ong va borliqqa nisbatan munosabati o'zgarayaptimi, demak, uning badiiy akslanishi bo'lgan san'at, ajralmas va asosiy bo'lg'in bo'lgan adabiy did, munosabat va ifoda shakllari o'zgarishi tabiiy hol.

Afsuski, yangilanishni ijtimoiy ong bordan qabul qilmasligi ham tabiiy. Shunday ekan, adabiyotdagi o'zgarishlar hech qachon jamiyatdan yoki ijtimoiy hayotdan, borliqdan ayro, begona muhitdan ko'chirilgan, import qilingan holda paydo bo'lmaydi. Agar u milliy tafakkur bilan sintezlashmasa, o'zining hosilasini bermaydi. Har qanday san'at asari, agar u chinakam san'at asari bo'lsa, shu muhitning, shu davrning, shu davr tiyatning aksi o'laroq o'zini namoyon qiladi.

Tabiiyki, san'at sezgan, his qilgan, ko'rgan va o'rta tashlagan ko'rimlarni anglash uchun yillar kerak bo'lishi mumkin. Shu sababli ham har avlod san'atga kirib kelganda, o'zi mansub avlod va davr ruhiyatini taqdim qilganda unga har xil munosabatlar, xususan, salbiy munosabatlar ko'proq bo'ladi, ijtimoiy ong asli o'zini ko'rgan bu haqiqatlarni bordan tan olishi

ancho murakkab kechadi.

Birgina misol. XX asr boshida Anri Matiss, Albera Mark, Sharlya Kamuan, Robera Deborna, Anri Friyeza, Jana Pyu kabi fransuz yosh rassomlarining dastlabki ko'rgazmasiga kelganlar kartinalarni ko'rib, o'sha davrning didi va qarashlaridan kelib chiqib, tasviriy san'atga nisbatan tuhmat deb baholashgan, an'anaviy tasviriy san'atni buzishda, umumiy axloq va estetik talablarni mensimaslikda keskin ayblar qo'yishgan, bu avlodga «san'atdan ayro yovvoyilar» degan tamg'a ilishgan. Shu bois ular «yovvoyilar avlodi» nomi bilan san'at tarixiga kirgan. Qizig'i shundaki, o'sha paytda qabul qilinmagan qarashlar XX asrning barcha yangi oqimlariga turtki bergan va san'atda yangi uslublar yaratilishiga asos bo'lgan.

Bu rassomlar o'zlarini mansub avlodlardan farqli o'laraq, texniklashayotgan va moddiylashayotgan insonga va uni tasvirlashga bo'lgan universal yondashuvlarda ichki sezimlarini aks ettirib, individual munosabatlarni namoyon qilishgan. Keyinchalik esa, oradan yillar o'tib, bu avlod o'sha paytdayoq inson ruhoniyatidagi o'zgarishlarni o'ta sezgirlik bilan ilg'agan va uni namoyon etgani dunyo miqyosida tan olingan. Buni XX asrning zabardast musavviri Anri Matiss ijodiga munosabatdan ham bilsa bo'ladi.

Aftidan, «Akademnashr» chop etgan «Izlam» turkumidagi to'plamlar atrofida ham shunday munosabat paydo bo'lganga o'xshayapti. Bu yoshlarning yuqoridagi fikrlarga uyg'un ba'zi satrlarini keltiraman.

«E'tiqod haqida to'qimang ertak,

Bugun bu matallar kimga ham kerak?».

(Xurshid Abdurashid)

«... Borliqni yangidan nomlamoq uchun, Ikkala ko'zini o'rganlar bilar». «Xalqisifat talvasa yo'la, Mening dorga ehtiyojim bor!».

(Jontemir)

«Na oldda ko'rinar tog'lar cho'qqisi,

Na ortda suya'di bobomning yodi,

Hali o'lmay turib qiynar do'zaxday,

Muallaq qolmoqning alamli totii».

(Feruza Xayrullayeva)

«Na boshim, na oxirim ayon, Yashayapman, to'rt taraf so'roq».

(Muhammad Siddiq)

«Bir anduh izlarman Arsh tarafdardan».

(Mirzohid Muzaffar)

Bu kabi iqtiboslarni turkumidagi barcha yoshlardan keltirish mumkin. Ko'rib turganimizdagi, bu avlod «borliqni yangidan nomlash» istagida. Bu nomlash qay darajada o'zini oqlashini hali vaqt ko'rsatadi. Mabodo she'r davrning hissii bayoni, ong osti kechinmalarning namoyoni, individning ruhiy jazbasi ekan, keltirilgan satrlardan ayonki, bu yoshlar ijodida dunyo san'atini og'ritayotgan bosh mavzular qamrab olinayapti. Individning mavjudlik qarshisidagi o'y-kechinmalari, holati, o'rni ko'proq bezovta qilyapti, ayni shu jihati bilan yoshlar ham shaklan, ham mazmunan dunyo adabiyotining ilg'or an'analari bilan uyg'unlashyapti. Bu nafaqat adabiyotning, balki falsafaning, sosiologiyaning milliy tafakkurimizda sintezlashayotganini ko'rsatadi.

Avvalo, «Izlam» turkumi o'z nomi bilan aytib turibdi, bu — izlanish, o'zini izlash yo'lidagi intilish. So'nggi manzil, xulosa, qat'iy to'xtam emas. Izlanish yo'lida har xil saktalıklar, og'ishlar, ergashishlar, hali o'zi ham oxirigacha anglab yetmagan sarhadlar haqida shoshib xulosa aytishlar yoki faqat shunday, men haqman, degan hayajonli iddaolar, sarkashliklar bo'lishi tabiiy. Sarkashlik — yoshlikka xos xususiyat. Bu nafaqat kimyoviy jarayon, balki tabiat qonuni ham.

Muhokamalarga sabab shuki, bu turkumda yoshlar o'zlarining

bizga erish tuyuladigan, ba'zan e'tiroz uyg'otadigan qarashlarini, ko'rimlarini taqdim qilishgan. Shunday ekan, avvalo, turkumidagi har bir muallifning o'ziga xosligini alohida tahlil qilmasdan, ularni bir qolipga solib fikr bildirish unchalik to'g'ri emas. Sababi shundaki, agar sinchiklab tahlil qilinsa, bu mualliflar bir avlod sifatida taqdim qilingan bo'lsada, ijodida, ifoda usullarida, tanlagan shakllarida bir-birini inkor etadigan darajada turli konseptual maqsadlar yotganini ko'rish mumkin.

«Izlam» turkumiga jamlangan yoshlarning ko'rimlari elementlar kimyoviy reaksiyaga kirishgan pallani eslatadi. Reaksiya jarayonidagi rang, tus, moddalar o'zgarishiga qarab xulosa chiqarishga erta. Hali toki ma'lum bir element qiyofasini olguncha, biz ko'k deganimiz oq, qora deganimiz qizil, oq deganimiz qora rangga aylanib qolishi mumkin.

Yoshlar taqdim qilgan namunalar hamalda birdan potirib chiqqan turfa nihollarni eslatadi. Hali oldinda qancha jalalarga, sellarga, izg'irinlarga, erta bahorning ming bir to'polonlari, bo'ronlariga dosh berishi kerak bo'ladi. Faqat tomirlari zaminga mustahkam ildiz otganlari, o'zi o'sib chiqqan tuproq bilan til topisha olganlari kuzgacha yetib boradi. Biz har birining mevali daraxtga aylanishini istasakda, baribir ko'p narsa, xususan, ularning gullab-yashnashi, avvalo, niholning irdasiga, keyin uni urug'lantirgan quvvatga, u



xulosa qilgim kelmadi. Mabodo bu shakl va usulni yoshlar qabul qilishayotgan ekan, demak, ularda dunyoqarash, did, So'z, estetikaga munosabat bizga nisbatan o'zgarayapti.

Bir narsani tan olish kerak. Bu yoshlar allaqachon So'zning ta'mini bilishadi, ijodning eskirgan tasavvurlari ko'nikmalarga isyon ekanini anglashadi. Aynan shuning uchun ham «Izlam»da norozilik, tushkunlik, qoniqmaslik, o'zlaricha savol qo'yib, o'zlarini javob izlash ruhi ko'proq o'xshaydi.

Turli ifoda usullarini tanlagan yosh ijodkorlarni bitta umumiy xususiyat birlashtirib turadi. Bu ham bo'lsa, ular o'zlariga haqida ham, mayllari haqida, ehtirosu

bizga odobsiz va nigilizm bo'lib ko'rinayotgan da'volari tagida aslida inkordan ko'ra o'z yo'lini kashf qilishga harakatlari, ijodiy o'ziga xoslikka intilishga bo'lgan ahvol ruhiyasi yotadi. «Izlam» turkumi ortida turgan yoshlardan ham shunga o'xshagan iddao borligini tabiiy qabul qilish kerak.

Taqdim qilingan namunalaridan ko'rinib turibdi, bu yoshlar ommaviy illyuziyalardan voz kechib, o'zlarini Shaxs va Individ sifatida ko'rishni, o'zlarini olomon tasavvurlari bosimidan xalos qilishni, o'rniga garchi halli tugal xulosaga shakliga kelmagani, hali zaif bo'lsada, narsa va voqelik haqida o'z qarashlarini bayon etishni istayaptilar.

Shu sababli muhit haqida ham, munosabatlar haqida ham, o'zlarining fitratlari haqida ham yolg'on gapirishni ep ko'rishmagan. Qanday o'ylashsa, bo'yab-bejab, «pardalab» o'tirmasdan, shunday holicha taqdim qilishgan. Bu esa bizga «odobsizlik» bo'lib tuyulayapti. Umuman olganda, agar odob mutelik va qullikni, ko'k'rona itoatni, oqni qora deyishga toqat qilishni bildirsa, millat tafakkuri maromiga cheklov qo'ysa, unda bu «odobsizlik»ka bo'lgan norozilikni tushunsa bo'ladi. Xuddi shuningdek, hayo masalasida ham. Hayosi yo'q odam nafsga berilgan, manfaati birinchi o'ringa qo'yadigan, xudbin, bezbet, zolim, yovuz, birovning haqini yeyishdan tap tormaydigan, o'zini ezadigan, insoniylikni tan olmaydigan kishi bo'ladi. Shunday ekan, hayoni faqat tashqi ko'rinishga bog'lab tushunish to'g'rimikin?

Bu savollarni men berayotganim yo'q. Bu yoshlarning she'rlarini o'qiganda paydo bo'lgan, ular ba'zan ochiq, ba'zan sarkashlik, ba'zan iddao bilan qo'yan savollar. Ularning qo'yan savollarida jon bormi? Agar jon bo'lsa, biz birdan inkor qilishdan oldin bu savollarga ham javob topib ko'raylik.

Adabiyotda odob va hayo masalasi estetikaning muhim talablaridan biri. Men shunday o'ylayman. Yoshlardan ham estetikaning bu muhim talablariga, avlodlar ming yillardan beri tajribasidan o'tkazgan xulosalarga hurmat bilan qarashni so'rayman. Gap shundaki, agar siz buqun tizzaning yalang'ochligini tasvirlasangiz, buni ijtimoiy ko'nikmaga aylantirsangiz, ertaga keladigan avlod albatta boldir, keyin yuqoriroq a'zolarining yalang'ochligini ham ko'nikmaga aylantirishadi. Bu mas'uliyat hamisha esda turish kerak.

Nima bo'lganda ham, «Izlam» turkumi bizni ko'pdan beri to'nb qolgan masalalar haqida fikrlashga undayapti.

Psixologiya fanining ta'kidlashicha, ijtimoiy ong, xususan, muhitni o'ziga tobe qilib olgan, yo'rig'iga solayotgan ommaviy ongsizlik Yolg'on va yolg'onning ziyatlangan ko'rinishi bo'lgan illyuziya bilan birga yashashga majbur. Yolg'on eng avval ommani o'ziga rom qiladi, uni o'z changali va manipulyatsiyasida ushlab turishga urinadi. Yoki aksi. Ommaviylashish, Gasset aytganidek, voqelikni siyqalashiradi, Yolg'onga taxt tayyorlaydi, Yolg'onni ko'nikmaga aylantiradi. Yoshlarda ana shu ko'nikmaga qarshi norozilik

yaqqol ko'zga tashlanadi.

Agar turkumidagi asarlar qahramonlari ko'zi bilan qarolsak, yurt, ozodlik, shaxs, insonparvarlik, milliylik, e'tiqod va hatto inson haqidagi qarashlarimiz zaminida qancha yolg'on borligini tan oolsak, unda bu yoshlar o'rta tashlagan, bizga beodoblik va hayosizlik bo'lib tuyulayotgan ko'plab munosabatlarimizga oydinlik kiradi.

Oddiygina «Vatan» deb ko'kragiga urishlar ostida qancha yolg'on bor? Vatanga muhabbat bu baqirib, shou qilib aytildigan tuyg'u emas. Muqaddas tuyg'ular qancha shovqin qilinsa, shuncha yalang'ochlashadi, ya'ni yolg'onlashadi. Ozodlik deb hayqirganlarning o'zi ozodlik haqida tasavvurga egami? Uning nimaligini biladimi? Rostdan ham, da'vo qilayotganday, o'zini shunga bag'ishlay olganmi? Yoki ko'zimizga odobli, hatto e'tiqodli bo'lib ko'ringan, o'ziga bu borada rosa zeb berganlarning amali va tiynati qanday?

Vatanparvarlik, e'tiqod va hatto odob tushunchalari xunuk va betamiz vujudimizni yopib turish uchun shunchaki kiyimga aylanib qolmaganmi?

Biz faqat ko'rinishda, o'zimizni tutishda, tashqarimizda emas, ruhoniy jihatdan shu yuksak tushunchalarga mos yashayapmizmi? Ichki a'molimiz shunga mosmi? Agar mos yashayotganlar bo'lsa, otasiga rahmat. Ularga qulluq. Va shubhalarimiz uchun ularidan uzr so'raymiz. Ammo qarshimizda mutlaqo boshqa bir manzara, boshqa bir voqelik turibdi, demoqda yoshlar.

Shaxsan men yoshlar o'z asarlarida qo'yan. Bu savolga qoniqish bilan «Ha» deya olmayman. Bunday ko'rinish bizning personamizga aylanib ulgurdi. Bu persona ichimizdagi «Men»ni o'ziga allaqachon qul qilib olgan. Bunday yashash ommaviy ko'nikmaga aylanmoqda. Shaxs yemirilishi butun boshli avlodga xos xususiyat bo'lib boryapti.

«Izlam»chilar bizning ichimizdagi ana shu Yolg'onni va unga bo'lgan ommaviy munosabatimizni turli shakllar ifodalarda, tashbehu ko'rinishlarda ifodalashga urinishgan.

«Izlam» turkumi bizga qanchalik erish, hatto odobsiz tuyulmasin, bugungi yoshlarning, nafaqat yoshlarning, balki hammamizning tiynatimizga bo'lgan undayapti. Bizni Rost fitratimiz bilan yuzlashtirishni istayapti. Zotan, bu xususiyat deyarli barcha she'rlarga va deyarli barcha mualliflarga tegishli.

«Izlam» turkumi olomonchilik tasavvuri bosimidan o'zlarining shaxs va individ tasavvurlarini xalos qilishni istayotgan bir avlod adabiyotimiz ostonasida turganini namoyish qildi. Shu sababli bu turkum va bu mualliflar haqida qolipdagi tasavvurlar, qolipdagi o'lchamlar bilan emas, har birini bugungi avlodning ruhiy-ma'naviy qiyofalarini aks ettirayotgan, o'zlarini olomonchilik arxetiplaridan qutqarishni istayotgan sotsial individlar sifatida o'rganish va fikr aytish, ijod namunalarini ham ana shu rakkusda tahlil qilish ma'qulga o'xshaydi.



Turkiyaga tahsil olish uchun borgan bir guruh yoshlar yurtiga qaytganida ularga «vatan xoini», «josus» tamg'alari yopishtirilib, qatag'onga uchraydi. Natijada, ular o'z yurtlarini tashlab Afg'oniston hududiga o'tib ketishga, xorijda yurganlari esa yurtiga qaytmalikka majbur bo'ladi.

MILLAT RUHI

TURKIY DUNYO MA'RIFATPARVARLARI ORZULARI USHALGAN KUN



Dilnoza JAMOLOVA,
FA Tarix instituti doktoranti

Turkchilik nima savoliga ma'rifatchilik deya javob bersak, eng to'g'risini aytgan bo'lamiz. Buning tasdig'ini Turkiy dunyo o'timshining istagan bosqichidan topish mumkin. Shu bilan birga, uzoqqa bormasdan, XX asr boshlarida Turkiston va Turkiya ma'rifiy hamkorligiga oid tarixiy sahifalarni varaqlashning o'zi yetarli bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Yangi usul maktablarini tashkil etishga qattiq bel bog'lagan jaded bobolarimiz tajriba orttirish uchun Istanbulga avval o'zlari borgan, keyinchalik iste'dodli yoshlarni oliy ma'lumot olish uchun yuborgan. Bu o'z navbatida, Rossiya imperiyasi hamda Turkiston general-gubernatorligi hukmron doiralarni tashvishga solgan. Ular taraqqiyparvarlarning Yosh turklar bilan aloqasi, chet davlatlarda, ayniqsa, Turkiyada ularni kimlar rag'batlantirayotgani, kimlar tomonidan va qayerda jaded maktablari ochilgani, kimlar bunday maktablarda rahbarlik qilayotgani va dars berayotgani kabi masalalarda mahalliy boshqaruv xodimlaridan ma'lumot so'rab turgan. Jaded maktablarini yopishga intilib, Turkiya, Bg'chasaroy, Ufa, Qozon, Tbilisi, Orenburgdan kelayotgan gazeta va jurnallarning tarqalishini qattiq nazorat ostiga olgan.

1909-yili Buxoroda Sadridin Ayniy, Abduvohid Munzim, Ahmadjon Hamdiy, Hamidxo'ja Mehriy, Hoji Rofe', Mukammil Burhonov «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») jamiyatini tuzgan. Bu jamiyat o'z faoliyatining dastlabki yillidayoq bir guruh yoshlarni Istanbulga o'qishga yubordi. Turkiyada ta'lim olishdan maqsad o'lkadagi «usuli jaded» maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish, «usuli tadriss»ning ham amaliy, ham nazariy asoslarini ishlab chiqish, darsliklar, o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar yaratish edi. Turklarning «usuli savtiya» metodida ilk bor yaratilgan Ahmad Midhatning «Xojai avval» (1868-yil) alifbosidan Toshkent, Samarqand, Buxoro jaded maktablarida dastlab darslik sifatida foydalanilgan bo'lsa, keyinchalik shular asosida mahalliy muallimlar o'zlari darslik yaratgan.

Buxoro amirligidagi jadedchilik harakatida faol ishtirok etgan Usmonxo'ja Po'latxo'jayev va Hamidxo'ja Mehriy 1908-yilda o'qish uchun Eron hududi orqali Turkiya

poytaxti Istanbulga borganlar. Bu yerda ularni Buxorodan kelgan bir rasmiy hay'at kabi e'zoz bilan kutib olishadi. O'sha paytda Turkiyada Harbiy ishlar Noziri bo'lgan Anvar posho ularni oliy darajada qabul qiladi. Bu hodisa Rossiyaning Turkiyadagi elchisini xavotirga solib, bu haqda rus imperatori Nikolay II ga xabar bergan. U Buxoro amiri Abdulahadxondan Usmonxo'ja va Hamidxo'ja haqida ma'lumot so'raydi. Abdulahadxon rus hukmdoriga: «Ular yosh bolalardir, Turkiyaga tahsil olish uchun borganlar», – deb javob qaytargan.

Usmonxo'ja va Hamidxo'ja Istanbuldagi maktab va maorif, milliy madaniyat sohasidagi shaxsiyatlar bilan tanishadilar, suhbatlar quradilar, xususiy dars oladi, dunyoviy fanlar bo'yicha bilimlarini orttiradi.

«Tarbiyai atfol» jamiyati ko'magida Istanbul dorulfununida tahsil olayotgan Usmonxo'ja, Abdurauf Fitrat va boshqalar Turkiyada o'qiyotgan vatandosh o'quvchi-talabalarga ham iqtisodiy, ham ma'naviy yordam ko'rsatish, Buxoro va Turkistondan talabalar kelishini ko'paytirish va muntazamlashtirish maqsadida jamiyat tuzadilar.

Buxorodan Istanbulga ta'lim olish uchun yuborilgan yoshlar Turkiyadagi Rossiya elchixonasi xodimlari tomonidan doimiy kuzatib borilib, ular to'g'risida Peterburgga xabar berib turilgan. Jumladan, elchixonaning Peterburgga yo'llagan 1911-yildagi maxfiy ma'lumotida: «Mukammil Burhonov va Mazhar Burhonovlar homiyligida Buxoro amirligidan bo'lgan jami 30 ta o'quvchi Istanbulda o'qitilmoqda», – deb xabar beriladi.

1913-yilning bahorida Istanbulda o'qiyotgan bir guruh yoshlar – Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Atoxo'ja, Fitrat, Homidxo'ja vatanlariga qaytib keladilar va Buxoroda «usuli jaded» maktabi ochishga kirishadilar. Bu maktablarni kitoblar, darsliklar bilan ta'minlash maqsadida «Ma'rifat kutubxonasi» va «Barakat shirkati»ni ochadilar. Turkiya, Tatariston, Qrim, Ozarbayjonda chiqadigan har bir yangi kitoblar, darsliklar va nashrlar kutubxonaga kelib turadi. Rossiya imperiyasining Yangi Buxorodagi (Kogon) xufiyasi Belman tomonidan yo'llangan maxfiy maktub (1912-yil 24-fevralda yozilgan)da

ko'rsatilishicha, «Usmonxo'ja Istanbuldan ko'plab siyosiy risolalar olib kelgan. U turkchilik va islomchilik g'oyalarini targ'ib qilish bilan shug'ullangan, yashirin siyosiy tashkilot hayotida faol qatnashgan».

Istanbulda o'qiyotgan talabalar tahsil olish bilan birga Turkiyada chiqadigan «Hikmat», «Ta'rifi muslimin», mashhur turk shoiri Mehmet Akif muharrirligidagi «Siro' ul-mustaqim» («To'g'ri yo'l») kabi gazeta va jurnallardagi xabarlar va maqolalar bilan tanishib boradilar. Gazetalaridan Buxoroga ham jo'natib turadilar. Bu nashrlar tez orada amirlik hududida o'z muxlislariga ega bo'ladi.

Buxoro amirligi o'rinda 1920-yilda tashkil topgan Buxoro xalq sovet respublikasi (BXSR) hukumati ham Turkiya bilan madaniy hamkorlikni davom ettirdi. BXSR rahbariyati Turkiya bilan munosabatlarda ta'lim sohasidagi hamkorlikka alohida e'tibor qaratdi va 1921-1922-yillarda zamonaviy oliy ma'lumotli mutaxassislariga ega bo'lish maqsadida bir guruh yoshlarni Turkiyaga o'qishga yubordi. O'quvchi yoshlarni tanlash va xorijga jo'natishda Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Qori Yo'ldosh Po'latov, Abduvohid Burhonov kabilar mutasaddilik qilishgan. Talabalarining moddiy ta'minoti doimiy ravishda BXSR Maorif nozirligining nazoratida bo'lib, ular uchun ajratilgan pul mablag'larini Rossiya orqali jo'natish bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Jumladan, 1921-yil 5-oktyabrda BXSR Maorif nozirining markaziy ijroiya qo'mitaga yozgan maktubida Turkiyadagi Buxoro talabalari uchun jo'natilgan pul mablag'lari konsullar o'rtasida taqsimlab olingani va moddiy yordam kechikkanligi ma'lum qilingan. Natijada, 1921-yil 23-oktyabrda Buxoro markaziy ijroiya qo'mitasi majlisida Turkiyada tahsil olayotgan buxorolik talabalarga moddiy yordam ko'rsatish masalasi ko'rib chiqilgan va Istanbulga boruvchi savdogarlar orqali talabalarga pul mablag'lari jo'natilgan.

1922-yil oxiriga kelib, sovet hukumati BXSR hukumatidan Turkiyada tahsil olayotgan yoshlarni zudlik bilan chiqarib olishga buyruq beradi. O'z mamlakatining taraqqiyoti va rivojlanishiga munosib hissa qo'shish maqsadida Turkiyaga tahsil olish uchun borgan bir guruh yoshlar yurtiga



qaytganida ularga «vatan xoini», «josus» tamg'alari yopishtirilib, qatag'onga uchraydi. Natijada, ular o'z yurtlarini tashlab Afg'oniston hududiga o'tib ketishga, xorijda yurganlari esa yurtiga qaytmalikka majbur bo'ladi.

1923-yilga kelib, Rossiya tomonidan Buxoro respublikasini mustamlakalashtirish jarayoni avj ola boshlaydi. Oqibatda, Buxoro hukumati rahbarlarining ko'pchiligi iste'fo berishga va muhojirlikka ketishga majbur bo'ladi. BXSR hukumatida dastlab moliya noziri, keyin esa BXSR markaziy ijroiya qo'mitasining birinchi raisi lavozimida ishlagan Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (1878-1968) Turkiya hukumatiga siyosiy boshpana so'rab murojaat qilganlardan biri edi. U 1923-yil sentyabrda Istanbulga kelgan va Turkiya Respublikasining birinchi prezidenti Mustafa Kamol Otaturk tomonidan davlat rahbarlariga ko'rsatiladigan oliy maqomda kutib olingan. Usmonxo'jani o'z mehmonidek qabul qilgan

Mustafo Kamol unga Turkiya Respublikasi hukumatida mas'ul vazifada ishlashni taklif qiladi, ammo Usmonxo'ja bundan keyin siyosiy ishlarga aralashmasligi, Turkiston madaniyati masalalari bilan shug'ullanish maqsadi borligini aytadi. Mustafa Kamol Usmonxo'jaga ma'naviy va moddiy madad berishini aytib, unga Turkiya davlati miqyosidagi nafaqa belgilaydi. Ushbu nafaqani Usmonxo'ja umrining oxirigacha, vafotidan so'ng esa xotini olib turgan.

Turkiston o'lkasi jadedlari ham turk ma'rifatparvarlari bilan yaqindan aloqalar o'rnatgan edilar. 1901-yilda Turkiston jadedlarining ko'zga ko'ringan namoyandasi Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentning Shayxontohur dahasida Mirdadahoji ismli boyning mehmonxonasida jaded maktabiga asos soladi. U maktab ochish bilan ish bitmasligini, darslik va o'quv qo'llanmalari havodek zarurligini yaxshi bilar edi. Shuning uchun dastlabki yillarda Istanbuldan diniy va dunyoviy o'quv risolalari, alifbo va o'qish kitoblari keltiriradi. Munavvarqori o'lkani qoloqlikdan, millatni mustamlaka zulmidan qutqarishning birdan-bir yo'lini ilm-ma'rifatda, zamonaviy texnikani egallashda ko'rdi. Maktabni birinchilardan bo'lib bitirgan shogirdlaridan Muhammadamin Afandizoda uning bu faoliyati haqida: «Munavvarqori Turkistonni istilo etganlarga qarshi kurashishning yagona yo'li ta'limda deb bildi. Xalqni isyonga chorlamadi. Bizning g'alabamizning birinchi sharti va asosi bilim va texnikadir, deb, biz yoshlarga tahsilni Istanbulda davom ettirish kerakligini ta'kidlar edi», deb yozgan edi.

Munavvarqori Abdurashidxonov toshkentlik bir qancha boylar homiyligida iste'dodli yoshlarni Istanbul, Rossiyaning musulmon o'lkalari dorulfununlarida o'qitish uchun 1909-yili «Imdodiya» (Xayriya) jamiyatini tuzgan. Uning homiyligida Munavvarqori maktabining ilk qaldirg'ochlari Abdulhay Tojiy, Mirmuhsin Shermuhammedov, Lutfulla Olimiy, Fayzulla

Usmonov Ufadagi Oliya madrasasida o'qishni davom ettirgan bo'lsa, keyingi bitiruvchilari Boku, Turkiya, Misr oliy ta'lim dargohlariga yo'naltirildi.

Munavvarqori Abdurashidxonov maktabida turk zobitlaridan Haydar Shavqiy o'qituvchi sifatida qabul qilingan edi. Maktab qoshida Haydar Shavqiy rahbarligida «Temur» to'ldasiga tashkil etilib, unga Toshkentning yirik boylaridan Sa'dulla Tursunxo'jayev homiylik qilgan. «Temur» to'dasi Nizomiddin Xo'jayev, Muhiddin Tursunxo'jayev, Qayyum Ramazon, Mashriq Yunusov (Elbek), Hamdam Tojiyev, Ziyo Said, Komiljon Alimov, Akbar Askariy, To'lagan Mo'min kabi iqtidorli yoshlar a'zo bo'lib kirgan edilar. «Temur» to'dasi qoshida kattalar uchun hisobchilik o'qishlari ochilgan bo'lib, unda Toshkentning Haydar Shavqiy, Muhammad Odiliy, Usmonxon domulla kabi mashhur muallimlari dars bera boshladilar.

1918-yil bahorida Turkiyada tahsil olgan va o'sha yerda harbiy xizmatga kirib, zobit unvonini oigan asli xo'jandlik Sayyid Ahroriy Toshkentga qaytib kelgan va «Turon» maktabida muallimlik qilgan.

Samarqandlik jaded Abduqodir Shakuriy ham jaded maktabi tashkil etgach, uning faoliyatini takomillashtirish, «usuli tadriss»ning ham amaliy, ham nazariy asoslarini ishlab chiqish, darsliklar va o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar yaratish uchun 1911-yili Turkiyaga boradi. Istanbulda mashhur pedagog Sotebek darslari bo'lgan. Turklarning savtiya usulida ilk bor yaratilgan, Ahmad Midhat qalamiga tegishli «Xojai avval» (1868) alifbosi va boshqa darsliklar bilan tanishgan hamda Turkistonga qaytayotganida kitoblardan bir necha nusxa olib kelgan. Bu kitoblarning ayrimlari bugungi kunda Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Kitoblar maktab bolalarining yoshi va qobiliyatlarini inobatga olgan holda tuzilgan bo'lib, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Sadridin Ayniyilar darsliklar yozgunlariga qadar foydalanilgan.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston mintoqasi ziyolilarining Turkiya taraqqiyparvarlari bilan ilmiy hamda madaniy hamkorliklar samarali kechgan. Millat, til, adabiyot, tarix va din jihatlaridan bir-biriga juda yaqin bo'lgan bu ikki yurt o'rtasidagi ma'rifiy aloqalar boshida o'zining ijobiy natijalarini bera boshlagan bo'lsa-da, biroq mustamlaka tuzum qarshiligi o'lroq o'zining mantiqiy va adolatli yakiniqga yetmay qolgan. 1991-yili qadimiy Turkiston xalqlari istiqloлга erishgach, mazkur asriy armonlarni tiklash imkoni tug'ildi. Yangi O'zbekistonda yuz berayotgan tarixiy o'zgarishlar, ayniqsa, o'zbek davlatining Turkiy davlatlar kengashidagi o'z munosib o'rniga qaytishi Turkiy dunyo hayotida uzoq kutilgan o'zgarishlarga katta turki berdi. Buni turkiy davlatlarning yaqinda bo'lib o'tgan yig'ilishi va unda ilk bor Turkiy sivilizatsiya voqeeligining yuksak darajada e'tirof etilishi, Samarqandning esa, uning poytaxti deb e'lon qilinishida ham ko'rishimiz mumkin. Bir asrlar burun kuyunchak ajdodlarimiz intilgan, binoq orzu bo'lib kelayotgan marralar bo'y ko'rsatgani barchamizga qutluq bo'lsin!

Hamkorlik

O'ZBEKISTON MADANIYATI KUNLARI

Keyingi yillarda qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarni yanigacha rivojlanish bosqichiga chiqdi. Bu jihatlar O'zbekiston va Qozog'iston davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy aloqalarda yanada teranroq namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi axborot xizmatiga ko'ra, mamlakatimiz san'atkorlarining katta guruhi Qozog'istonda bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi madaniyati kunlarida ishtirok etish uchun Ostona shahriga yetib keldilar.

Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi Rayosati Majlisining bayoniga asosan O'zbekistonda Qozog'iston yili va Qozog'istonda O'zbekiston yilini har yili navbatma-navbat uzluksiz o'tkazish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, joriy yilning 29-iyulida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan SHHT Tashqi ishlar vazirlari yig'ilishi doirasida O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilganligining 30 yilligini keng nishonlash bo'yicha imzolangan qo'shma tadbirlar rejasining tegishli bandida Qozog'istonda O'zbekiston madaniyati kunlarini tashkil etish belgilangan.

Mazkur vazifalardan kelib chiqib hamda Qozog'iston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining murojaatiga binoan joriy yilning 21-24-noyabr kunlari Ostona shahrida O'zbekiston madaniyati kunlari bo'lib o'tayapti.

Ushbu nufuzli tadbirda ishtirok etish uchun madaniyat va san'at namoyandalari, Respublika

markaziy ko'zi o'zlar kutubxonasi vakillari, hunarmand va rassomlar – jami yuz nafardan ortiq ijodkorlardan iborat O'zbekiston delegatsiyasi Ostona shahriga tashrif buyurdi.

Ayni paytda ular madaniyat kunlarini yuqori darajada o'tkazish uchun qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda.

Madaniyat kunlari doirasida ikki davlat san'at ustalari ishtirokida konsert dasturlari, har ikki taraf ijodkorlarining mahorat darslari, anjumanlar, amaliy san'at hamda zargarlik buyumlari ko'rgazmasi o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Bu kabi samimiy va yuksak saviyadagi tadbirlar ikki qardosh xalq o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqishi, shubhasiz.

N.USMONOVA

Statistika

YALPI ICHKI MAHSULOT VA IMISLAR FOIZGA OSHDI

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi joriy narxlarida 627,5 trln. so'mni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich 2021-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,8 foizga oshgan.

2022-yilning 9 oyida aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarida 17,7 mln. so'm (1 603 AQSH dollari)ni tashkil etib, 2021-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 3,6 foizga o'sdi.



Vatan

Vatan, aylanayin tuproqlaringdan,
Soya-salqin bergan yaproqlaringdan.
Men daryo ko'ksida Vatan ko'rdim, deb
Cho'qqidan otilgan irmoqlaringdan.

Qaldirg'och valfajr aytadi sayron,
Tumshug'in intilib cho'zar polapon,
Vassajuftli uying aylagach makon,
Qaldirg'och rizq tutar urvoqlaringdan.

Zangor dengiz yanglig' chayqalar dalam,
Rayhonga suv separ kelinchaklar ham,
Bog'ingda olmalar yuzlari taram,
Shirmoy non uzilar o'choqlaringdan.

Olloh nazar qilgan sehrli diyor,
Dunyoni titratgan daholaring bor,
Tuprog'ing zarrasi jonimga tumor,
Yuz chaygum iymondek qirg'oqlaringdan.

Bugun oltin tojli Alpomishim sen,
Qodiriy ham o'zing, ham Kumushim sen,
Zarlarga belangan Humo qushim sen,
Dunyo gul og'ushlar quchoqlaringdan.

Vatan, onajonim, jonu jahonim,
Ko'ksida o'stirgan firdavs makonim,
Mangu zavol bilmas O'zbekistonim
Vatan, aylanayin tuproqlaringdan!

Oltinrang yaproqlar shivirlab yotar...
Oltinrang yaproqlar... oltinlangan his...
Oltinrang yaproqlar qismatni ichar:
- Yashil umrimizda boshlanibdi kuz...
Oh, k u z z z...
Daraxt barglarida oltinlanar nur,
Shamolda hilpirar bir daraxt xazon...
Oltinrang yaproqlar bir-birin quchar:
- Nahot xazon bo'lmoq shunchalar oson...
Shunchalar oson?
Kuz qushlari qo'nmas xazonli boqqa,
Ular olislarga olmoqdalar yo'l.
Oltinrang yaproqlar aytar alvido,
Yerdan samo sari uzatganqa qo'l...
Derlar: Bahorlarga albat yetingiz,
Yashil yaproqlarga qo'nib o'tingiz.
Atrofqa boqaman: oltindir dunyo,
Atrofqa boqaman - xazonlar dengiz.
Oltinrang libosda ajib viqor-la
Mevalarni bir-bir terib olar kuz...
Mevalarni bir-bir terib olar kuz...
Xazonli bog'larda tentidim uzoq,
Quloqni yorguday kuzning jarangi.
Yerdan samo qadar za'faron dengiz...
Nahot shuncha go'zal itirob rangi...
K U Z Z Z ...

HAR ZARRADA...

Nechun buncha yam-yashil bog'lar
Samodagi bulut buncha oq.
Botayotgan quyosh nurlari
Nega qondan ko'ra yorqinroq?

Tog'lar nechun qaddini bukmas,
Nechun boshi egik majnuntol.
Shuncha yuksak bo'lsa ham nechun
lymanadi bizlardan hilol?

Daryo nechun bir so'z aytmasdan
Oqaverar abadiyatga.
Sir-sinoat to'la bu dunyo
Solaverar bizni hayratga.

Yashillanib sollanar bog'lar
Qaydan shuncha ilohiy viqor.
Ko'kdan kelar shunda bir sado:
Har bir bargda... Yaratgan pinhon,
Har zarraning o'z hikmati bor.

ONAJON

Oh...
Yaproqlar uzildi, kuzgi yaproqlar,
Ohim og'ir bo'ldi. Tugadi bardosh.
Tonglarni izladim, endi onam yo'a,
Sen uni ko'rdingmi, mehribon quyosh?
Tog'lar qoshida men boshimni egdim,
Onamni sog'inib yig'ladim chunon.
Daralar ingradi chekkan ohimdan,
Onamni ko'rdingmi, aytgil qoyajon?
Daryolar bo'yida o'ltirdim uzoq,
To'lg'in boshlarin urdi qirg'oqqa.
Maysalarga bexos yuz bosgan edim
Onam qo'llari, deb tushdim titroqqa.
Oyning shu'lasida o'tirdim behol.
Uning shu'larari o'ydi jonimni.
Meni qiynamagin beshafqat dunyo,
Bir bora ko'rayin, onajonimni.
Sim-sim eshiklari ochilmas mangu,
Tog'lar ham jonimga kirmaslar oro.
Indamay sajdaga boshimni qo'ydim,
Men qulig'ni kechir, parvardigoro...

Mashhurlar tilidan

XITYOYLIK QASHSHOQLARNI ILHOMLANTIRGAN OTA

2018

-yil noyabr. Xitoy markaziy televideniyesi ilk marotaba uzoq qishloqlik dehqonni o'z studiyasiga suhbat uchun taklif qildi. Dehqonning o'g'li Xitoyning eng nufuzli Shinghua universitetiga yuqori ko'rsatkich bilan o'qishga kirgani maxsus intervyuga sabab bo'ldi.

To'g'rida, o'ziga to'q xonadonlar yillar mobaynida eng zo'r o'qituvchilarni yollab, farzandlarini bo'lajak jiddiy

sinovga tayyorlasalaru, uzoq qishloqdagi kambag'alning o'g'li uloqni ilib ketsa. Qanday qilib? Nahotki, haminqadar qishloq maktabida o'qib shunday natijaga erishish mumkin bo'lsa?!

Jurnalist: «O'g'lingizning muvaffaqiyatini nima bilan bog'laysiz?»
Ota: «Bu undagi harakatning natijasi. O'g'lim bolaligidan talaba bo'lish orzusi bilan yashar edi».

Jurnalist: «Bu orzu hammada bor. Xitoydagi kuchli raqobatda birinchi bo'lish misoli mo'jiza. Undagi kuchli qiziqishda oiladagi muhitning ham o'rni bor. Farzand voyaga yetkazishda biror o'ziga xos usulningiz bormi?»

Ota: «Mening biror usulim yo'q. O'zim qashshoq oilada o'sdim. Otamda mening savodimni chiqarish uchun ortiqcha mablag' bo'lmagan. O'g'limni maktabga kuzatgan ilk kunim undan yaxshi o'qishini, nimaiki o'rgansa menga ham o'rgatishini so'radim. U har kuni maktabdan qaytib, o'qituvchisidan o'rganganlarini menga katta hayajon bilan tushuntirar edi. Kechki mahal birgalikda dars

qilish, o'g'limni tinglash kundalik mashg'ulotimga aylandi. O'qish-yozishni o'rgandim, shunday bo'lsa ham darslarimiz to'xtab qolmadi: yuqori maktabning so'nggi kuniga qadar o'g'lim menga ustozlik qildi. Ehtimol shu voqea uning muvaffaqiyatiga sabab bo'lgandir. O'g'lim boshida azbaroyi mening oldimdagi mas'uliyatni deb o'qishga jiddiy qaragan bo'lsa, bora-bora unda ilmga bo'lgan ishtiyog bo'y ko'rsatdi. To'g'risini aytam, uning uchun qo'shimcha darslar yollashga qurbim yetmagan...».

Bu suhbat ko'plab xitoylik qashshoqlarni ilhomlantirdi, irodali ota millionlab ota-onalar uchun ibratga aylandi.

Xulosa. Unutmang, farzandlarimiz uchun bekamu ko'st kelajakni hozir qila olmasak ham, ularni kelajak uchun tayyorlashga doimo imkoniyatimiz bor. Farzandingiz uchun har kuni vaqt ajratishdan erinmang.

Shuhrat SATTOROV



Mulohaza

BUNCHALAR NAFRAT QAYERDAN KELIYAPTI?



Rahmatulloh SAYFUDDINOV, Toshkent shahri bosh imom-xatibi

Nega aka-ukalar, ota-bolalar, qo'shni yoki qarindoshlar o'rtasida hamda jamiyatda mehroqibat va rahm-shafqat tushunchalari unutilib boryapti? Vaholanki, aka-ukalar bir qoriga siqqan, bir ko'rpachada yotib ulg'aygan va bir qozondan ovqat yegan. Uylanib, oilali bo'lganidan keyin esa ular o'rtasiga nafrat tushyapti. Undan ham g'aribrog'i bu - ota-bolalarning sudlashishidir. Nima uchun, uy talashib, ota qurgan uyga o'g'il da'vogar bo'lyapti. Bu axir ota-bola orasidagi nafratmasmi? Qo'shnilar esa bir qarich

yer talashib, bir-birini ustidan yozayapti. Agar jamiyatda bunday nafrat yo'q desangiz, maktab o'quvchisi, kollej talabasining o'z tengdoshiga o'ttiz martalab «otvertka» sanchayotganiga e'tibor bering. Qayerdan kelyapti bu vahshiylik, shafqatsizlik? Hali u 15-16 yoshdagi bola. Bir marta adashib jahl ustida shunday qilibdi, desalar tushunardik. Lekin u qayta, qayta sanchyapti... Shuning uchun ham bir-birimizga bunday vahshiylik, nafrat qayerdan kelayapti, degan savol berishimiz kerak.



KANADADA PLASTIK IDISHLARDAN UY QURILDI

Kanadada deyarli 1,2 million dona qayta ishlangan plastik idishlardan uy qurildi.

Idishlardan qurilish panellariga aylangan granula tayyorlandi. Ular suv o'tkazmaydigan va besh toifali bo'ronga bardosh bera oladigan darajada kuchli. Loyiha yaratuvchilarining ta'kidlashicha, bu kabi uylar chirimaydi va mog'orlamaydi hamda panellarni yig'ish bir haftadan kamroq vaqtni oladi.

Shuningdek, Hindistonda bir necha marta ishlatiladigan plastmassa mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish taqiqlangan. Joriy yilning 1-iyulidan Hindistonda 19 turdagi bir martalik plastik mahsulotlarni sotish, ishlab chiqarish va import qilishni taqiqlash boshlandi. Bular - stakanlar, ichimlik tayoqchalari, muzqaymoq tayoqchalari, paxta tayoqchalari, qadoqlash plyonkasi va ayrim turdagi polietilen paketlardir.

Bu qaror hukumatning plastik chiqindilar miqdorini kamaytirish rejasida doirasida qabul qilingan. Har yili Hindistonda 4 million tonnaga yaqin shunday chiqindilar ishlab chiqariladi, ularning faqat bir qismi qayta ishlanadi, qolgan qismi chiqindixonalar, dalarlar va daryolar yoki okeanga tashlanadi, deb yozadi "Sof energiya".

O'ZA

DUNYO AHOLISI 8 MILLIARDDAN OSHDI

Davlat statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 2022-yil 15-noyabr holatiga ko'ra, doimiy aholi soni 35,9 mln. kishini tashkil etgan. Shundan: Erkaklar - 18,1 mln. kishi. Ayollar - 17,8 mln. kishi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining

ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil 15-noyabr holatiga ko'ra Yer yuzidagi jami aholi soni 8034,3 mln. kishini tashkil etgan. Erkaklar - 50,5 foiz. Ayollar - 49,5 foiz. O'zbekiston Respublikasi aholi soni bo'yicha mamlakatlar o'rtasida 41 o'rinda qayd etilgan.

OBUNA - 2023!

2023-YIL UCHUN «MILLIY TIKLANISH» GAZETASIGA OBUNA BO'LING!

Obuna indeksi

158

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV - kengash raisi

Akmal SAIDOV,
Abdulaziz AKKULOV,
Abror PO'LATOV,
Amriddin BERDIMURODOV,
Akmal JUMABOYEV,
Bahodir MAMATXONOV,
Baxtiyor SAYFULLAYEV,
Ilhom ABDULLAYEV,
Ibrohim G'OFUROV,
Iroda DADAJONOVA,
Minhojiddin MIRZO,

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

Nodir MUXTOROV,
Odiljon TOJIYEV,
Olim O'SAROV,
Otabek JIYANBOYEV,
Ozodbek NAZARBEKOV,
Ortiqali QOZOQOV,
Feruz MUHAMMADJANOVA,
Xurshid DO'STMUHAMMAD,
Sherzodxon QUDRATXO'JA,
Shavkat SHARIPOV,
Shuxratjon AXUNDJANOV.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Maqsd Shaxzoda ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVATCHI MUHARRIRLAR:
Ravshan MAHMUDOV,
Abdug'afur OMONBOYEV
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YULDOSHEV
NAVATCHI:
Viloyatxon SHODIYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxonalar manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi - 5 057.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma - 1116
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 5:30

ISSN 2010-7714

123456